

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Xojimatova Zulxumor

**ANDIJON VILOYATI QISHLOQ TUMAN MARKAZLARINING
IQTISODIY RIVOJLANISHI**

5440500- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi M.Atajonov

Andijon - 2013 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I.Bob. Qishloq tuman markazlarini geografik o'rganishning nazariy asoslari.....	7
I.1. Aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob'ekti sifatida	7
I.2. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturi doirasida Andijon viloyati tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.....	12
II. Bob. Andijon viloyati qishloq tumanlari markazlarining iqtisodiy rivojlanishi.....	21
II.1. Andijon viloyati aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi.....	21
II.2. Tuman markazlari iqtisodiy rivojlanishining hududiy xususiyatlari.....	28
II.3. Andijon viloyati qishloq tuman markazlari istiqbolda rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	53
Xulosa.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	60

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bozor munosabatlari davrida jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi tub islohatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayon o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, aholining turmush darajasi va tarzida o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ijobiy hal qilish maqsadida respublikada aholisi turmush sharoitini bosqichma-bosqich yaxshilab borish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'z navbatida aholi turmush darajasini yaxshilash, joylarda infratuzilma tizimini shakllantirish kabi masalalar mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turtki bo'lib xizmat qiladi. Xususan, 2009 yilning "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2013 yilning "Obod turmush yili" deb nomlanishi va bu borada davlat dasturining ishlab chiqilishi ham mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Yaqin va o'rta muddatlar uchun yo'naltirilgan mazkur dasturlarga muvofiq so'nggi yillar mobaynida respublika shahar va qishloqlari yangicha qiyofaga kirmoqda. Tadqiqot mavzusining ob'ekti hisoblangan Andijon viloyati tuman markazlari bevosita hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va dasturlar bilan bog'liq holda taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Andijon viloyati turarjoy massivlarining kommunal infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha 2011-2015 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan viloyatga 1 trln. 696 mlrd. so'm miqdorida moliyaviy resurslarning ajratilishi hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga hamda aholining maishiy sharoitlarining yanada yaxshilanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir¹.

Yuqoridagi masalalarni izchil davom ettirish maqsadida 2013-2015 yillarda Andijon viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda belgilangan loyihalarni amalga oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada Respublika Prezidenti I.Karimov o'z ma'ruzalarida "Ana shu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida Andijon viloyatining shahar va tumanlarida yakka tartibda uy-joy massivlarini qurish, kommunal infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ko'zda tutadigan dastur qabul qilgan edi."² Respublika Prezidenti I.A.Karimov bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Andijon viloyati turarjoy massivlarining kommunal infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha 2011-2015 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori.- T. 2010.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Andijon viloyati xalq deputatlari navbatdan tashqari sessiyasda so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi gazetasi, 2013 yil 27 aprel. № 81 (5755)

soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'zni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir".¹

Aytish joizki, aholi punktlari, aholining turmush tarzi, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi masalalari, aholining turmush tarzi, yashash sharoitini belgilovchi mezonlarning qay ahvolda ekanligi, infrastruktura sohalarning aholi turmush tarziga bo'lgan ta'siri kabilar infratuzilma tizimining rivojlanishi bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, rivojlanish dasturlari o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan chora-tadbirlarni qamrab oladi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maxsus dastur ishlab chiqilgan va unda ko'zga tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlar o'z aksini topgan.

O'rganilganlik darajasi. Shu o'rinda e'tirof etish zarurki, geografiya fanida va uning tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada aholi punktlari, xususan tuman markazlari masalasi kam o'rganilgan. Qizig'i shundaki, mustaqillik yillarigacha hatto ko'p qishloqli, urbanizatsiya darajasi past bo'lgan O'zbekistonda ham ushbu muammo tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Albatta, mazkur holat yuzaga kelishining ayrim ob'ektiv sabablari ham bor. Jumladan, shaharlar va shaharlashuv (urbanizatsiya) jarayonining globallasuvi ularning jamiyatni hududiy tashkil etishdagi yetakchi mavqei qishloqlar muammosini biroz ikkinchi darajali qilib qo'ygan. Qolaversa, sobiq Ittifoqda, davlat va partiya rasmiy dasturlarida qishloqlarni ularni kelajakda shaharlarga aylantirish nuqtai nazaridan "istiqbolli" va "istiqbolsiz" guruhlariga ajratish ham qishloq joylarni noo'rin kamsitishdan darak bergan.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur ishning asosiy maqsadi Andijon viloyati qishloq tuman markazlarining iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish asosida joylardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tuman markazlarini iyojlantirishdagi ahamiyatini yoritishda o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- qishloq tuman markazlarini iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- urbanistik siyosatning aholi punktlari geografiyasiga ta'siri tahlil qilish;
- Andijon viloyati qishloq tuman markazlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

¹ Karimov I. A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.-41 b.

- Andijon viloyati qishloq tuman markazlarini takomillashtirish muammolari va istiqbolda rivojlanishini ko'rsatish va b.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur ishning tadqiqot **ob'ekti** sifatida Andijon viloyati qishloq tuman markazlari tanlangan. Uning **predmeti** esa viloyat qishloq tuman markazlari va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda omillarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Ilmiy ishda geografik taqqoslash, statistik, guruhlash, kartografik usullardan qo'llanilgan.

Ilmiy ishning nazariy-uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mavzuga oid nutq va maqolalari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, xorij va mamlakatimiz olimlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiya sohasidagi tadqiqotlar natijalari va qonuniyatlariga tayanadi. Uning axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Andijon viloyati statistika boshqarmasi, shuningdek, internet ma'lumotlaridan ham foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Bajarilgan tadqiqot ishining ilmiy yangiligi, eng avvalo urbanistik siyosat natijasida qishloq tuman markazlarining iqtisodiy rivojlanishi aholi zich yashaydigan Andijon viloyati misolida ilk bor o'rganilishida o'z aksini topadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 61 betni o'z ichiga oladi. Matnda 1 ta karta - sxema, 6 ta jadval hamda 4 ta grafik keltirilgan.

I.Bob. Qishloq tuman markazlarini geografik o'rganishning nazariy asoslari

I.1. Aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob'ekti sifatida

Mintaqalarda iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirish, joylarda aholining sotsial-maishiy sharoitlarini tubdan yaxshilash eng avvalo bu yerlarda ijtimoiy-iqtisodiy mazmun kasb etuvchi tadbirlarning joriy etilishi va ularning samaradorligini oshirilishi bilan chambarchas bog'liq.

Ma'lumki, milliy va mintaqalar iqtisodiyoti bugungi kunda uzoq tarixga ega bo'lgan va juda qadimdan shakllanib hamda rivojlanib kelayotgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosida taraqqiy etib bormoqda. Shu bilan birga, respublikada yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning deyarli 1/3 qismi agrar sektorga to'g'ri keladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan mehnat resurslarining katta ulushi aynan shu sohaga to'g'ri keladi.

Hozirgi davrda qishloq joylarda mamlakat jami aholisining aholisining asosiy qismi yashab kelmoqda. Ta'kidlash kerakki, qishloq joylarda aholining tug'ilish va tabiiy ko'payish koeffitsienti pasayib borayotgan bo'lsada, baribir u shaharlarga nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ayni vaqtda, qishloq aholisi sonining o'sishi uning va joylanishi, qishloq manzilgohlarining hududiy tarkibi o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega ekanligi hamda mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida qishloq joylar muhim ahamiyat kasb etishini ko'pgina ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlab o'tilgan.

Jamiyat taraqqiyotida dastlabki shaharlar vujudga kelgandan so'ng qishloq tushunchasi paydo bo'lgan va shaharlardan tashqari qolgan aholi manzilgohlari qishloq deb atala boshlandi. Ammo, ilmiy nuqtai nazardan shahar va shaharchalardan tashqarida joylashgan barcha hududlarni qishloq joylar deb atab bo'lmaydi. Shuning uchun ham, qishloq joylar deganda turli kattalikdagi qishloq aholi manzilgohlari va ularning ta'sir doirasidagi muntazam foydalanib turiladigan hududlarni tushunish maqsadga muvofiqdir.

Demak, qishloq va qishloq joylar tushunchasining paydo bo'lishi shaharlar va urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi bilan aloqadordir. Shuning uchun ham, urbanizatsiya jarayoni qishloq joylarsiz mutlaqo amalga oshmaydi.

2009 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim qishloq aholi manzilgohlariga shahar posyolkalari maqomining berilishi, shaharlarning qishloq hududlari hisobidan kengayib borishi, ularga qishloq aholisining ko'chib kelishi yoki migratsiyasi O'zbekistonda urbanizatsiya darajasining ortishiga sabab bo'ldi.

Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy siyosatida aholi punktlariga ustuvor ahamiyat berilayotganini, joylarda zamonaviy ijtimoiy infratuzilma tizimini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirishga alohida e‘tibor qilinayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida ham “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi bo‘yicha chora tadbirlarni belgilab, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatga yo‘naltirilgan muhim masalalarni alohida ta’kidlab o‘tdi [23]. Bu esa qishloqda ijtimoiy infratuzilma tizimini jadal taraqqiy ettirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini yana bir bor ta’kidlaydi. Shuning uchun ham, yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarning geografik jihatlarini ilmiy tadqiq etish, muammolarini aniqlash, tegishli taklif hamda tavsiyalar tizimini ishlab chiqish iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biriga aylanganligi bejiz emas.

Zamonaviy iqtisodiy va sotsial geografiya fani shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichlarida inson xo‘jalik faoliyati bilan bevosita aloqador muammolarni tadqiq etishga ustuvor ahamiyat berilganligi barchaga ma‘lum. Shu bois, mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy mezonini bo‘lib qoldi. Natijada sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport kabi iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishda ancha ilgari ketdi. Ammo, o‘sha davrlarda ham moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini geografik o‘rganish bilan bir qatorda ijtimoiy sohalar, eng avvalo aholi va uning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarning iqtisodiy geografik o‘rganilishi zarurligi ta’kidlangan.

Aholi geografiyasining vujudga kelishi va uning rivojlanishi natijasida aholi hamda uning ijtimoiy taraqqiyotining hududiy jihatlarini tadqiq etish ishlari kuchayib bordi.

Iqtisodiy geografiya fanida aholi punktlarini geografik o‘rganish o‘tgan asrning 60-yillariga, an‘anaviy iqtisodiy geografiyaning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya statusini olgan davrga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, aholi punktlarini iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganishning nazariy va uslubiy masalalari o‘sha vaqtlarda aholi geografiyasi va qishloq xo‘jaligi geografiyasi bilan shug‘ullangan bir guruh olimlar, xususan S.A.Kovalev, A.I.Alekseev va boshqalar tomonidan ta’kidlangan. Ular tomonidan aholi punktlari ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning o‘ziga xos ob’ekti ekanligini alohida ta’kidlab, ular rivojlanishining ayrim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, ya’ni aholi punktlarini ijtimoiy va iqtisodiy geografik o‘rganishning asosiy vazifalari, aholi punktlari geografiyasining fanlar tizimida tutgan o‘rni, geografik fanlar bilan o‘zaro aloqasi kabi jihatlar ochib berildi.

O'tgan asrning 90-yillarida aholi punktlari bir qancha tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarning muhim tadqiqot ob'ektiga aylandi. Aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganishda ularning aholisi, yashash joylari, turmush tarzi, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi, ishlab chiqarish masalalariga e'tibor qaratildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari tizimida aholi punktlari serqirra tadqiqot ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Aholi punktlarini nafaqat geograflar, balki iqtisodchilar, sotsiologlar, ekologlar ham tadqiq etadi. Iqtisodiy geograflar eng avvalo aholi punktlari va ularning alohida komponentlarini majmuali tarzda rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini o'rganishga asosiy e'tiborni qaratadilar. Chunki, shahar va qishloq joylar yirik maydonlar, tabiiy shart-sharoit va mineral xom ashyo salohiyati, aholi, uning joylashuv tizimi va ijtimoiy tuzilmalarini, o'ziga xos ijtimoiy, demografik, ekologik hamda ishlab chiqarish salohiyatini o'zida mujassam etuvchi hududlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi davr iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida shaharlar geografiyasidan farqli ravishda qishloq joylarni bir butun, kompleks tarzda o'rganilgan tadqiqotlar yetarli emas, ammo geografiya va unga turdosh ayrim fanlar doirasida qishloq joylar turli darajada va yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

Ma'lumki, qishloq tuman markazlari hudud va unda mujassamlashgan voqea-hodisalar muayyan sharoitda vujudga kelgan, shakllangan va o'zlarining rivojlanish xususiyatlari, omillari va qonuniyatlariga ega. Shu sababli, ularning hududiy jihatlarini yoritish, qonuniyatlarini aniqlash va ilmiy va amaliy xulosalar olish eng avvalo iqtisodiy geograflarning vazifasidir.

Geograflar tomonidan qishloq tuman markazlari asosan 3 yo'nalishda tadqiq etiladi: 1) Iqtisodiy, 2) Ijtimoiy, 3) Ekologik. Shu bois ham ularni geografik tadqiq etishning metodologik muammolaridan biri aholi punktlarini o'rganishdagi turli yo'nalishlarning o'zaro nisbati va bog'liqligi hisoblanadi.

Qishloq tuman markazlarini geografik tadqiq etishdagi iqtisodiy yo'nalish hozirgi kunga qadar an'anaviyligini saqlab kelmoqda. Bunda eng avvalo moddiy ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi masalasiga ustivor ahamit beriladi. O'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohalari, aholi va uning joylashuvi, tabiiy sharoit va resurslarning moddiy ishlab chiqarishga ta'siri va ularni iqtisodiy baholash masalalari ham o'rganiladi.

Keyingi vaqtlarda qishloq tuman markazlari ijtimoiy geografik tadqiq etishning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday tadqiqotlar asosan joylarni aholi va uning turmush sharoitlari va faoliyati nuqtai nazaridan baholashga qaratiladi.

So'ngi yillarda qishloq tuman markazlari geografik tadqiq etishning ekologik yo'nalishi shakllanib kelmoqda. Ekologik yo'nalish markazida inson xo'jalik faoliyati va aholining tabiiy

muhit bilan o‘zaro aloqadorligi kabi masalalar yotadi. Shu sababli ham hududlar ijtimoiy ekologik muammolarini kompleks o‘rganish, ularni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolayotganligi ko‘plab olimlar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

Qishloq tuman markazlari yuqoridagi uch yo‘nalish bo‘yicha bir xilda o‘rganilgan emas. Chunonchi, qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohalari yaxshi o‘rganilmagan. O‘z navbatida, aholi punktlari va ayniqsa qishloq aholisining turmush sharoitlari va hayot tarzi, qadriyatlar, an‘ana va urf-odatlar geografik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni ham bugungi kunda yetarli, deb bo‘lmaydi.

Qishloq tuman markazlari ijtimoiy geografik o‘rganish, birinchi navbatda aholining hayot sharoitlari va turmush tarzi doirasida amalga oshiriladi. Aholi punktlarida olib boriladigan ijtimoiy geografik, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-ekologik tadqiqotlar, eng avvalo, bu yerlarda yashovchi aholining tarkibi va dinamikasi, hayot sharoitlari, turmush tarzi masalalarini qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

Aholi punktlarini iqtisodiy geografik o‘rganishning yana bir muhim ilmiy-amaliy qirralaridan biri aholi punktlarini tip va klasslarga ajratish hisoblanadi. Bunday mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlar ayrim olimlar tomonidan bajarilgan xolos. Demak, ularning ilmiy asoslarini mukammallashtirish hamda takomillashtirish hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, aholi punktlari murakkab tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Uni geografik jihatdan tadqiq etishning asosiy metodologik masalalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) aholi punktlarining tarkibi va chegaralarini aniqlash;
- 2) qishloq joylar va shaharlarning o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish, ularning bajaradigan vazifalarini hozir va kelajakda o‘zaro bir-birini to‘ldirib borishini tahlil qilish;
- 3) aholi punktlarini geografik jihatdan o‘rganishda iqtisodiy, sotsial va ekologik yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish va takomillashtirish;
- 4) qishloq aholi manzilgohlarini tip va klasslarga ajratish;
- 5) turli tip va klasslarga mansub aholi punktlarining kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil etish va h.k.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16-yilligiga bag‘ishlangan “Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz” mavzuidagi ma’ruzasida 2009 yilga

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb nom berishni taklif qildi¹ va bu taklif yakdillik bilan qabul qilindi. Ushbu ma’ruzada respublika rahbari qishloq joylarning Ona-Vatan ravnaqi uchun naqadar ulug‘ligi va muqaddasligi, yurtimiz tarixi va madaniyatini qishloqlarga borib taqalishini alohida ta’kidlaydi.

Darxaqiqat, bizning sharoitimizda qishloqqa e’tibor-elga e’tibor demakdir. Binobarin, qishloq obod bo’lsa, Vatan obod bo’ladi. Chunki, mamlakatimiz madaniyati, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentaliteti, qadriyatlarimiz eng avvalo qishloqlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga bog‘liq. Hozirgi kunda ham qishloq xo‘jaligi milliy va mintaqalar iqtisodiyotini shakllanishida asosiy makroiqtisodiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Yaqin yillargacha respublika aholisining ko‘pchiligi, ya’ni 2/3 qismi qishloqlarda yashar edi.

I.2. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi doirasida Andijon viloyati tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16-yilligiga bag‘ishlangan “Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz” mavzuidagi ma’ruzasida 2009 yilga “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb nom berishni taklif qildi² va bu taklif yakdillik bilan qabul qilindi.

2009 yil 26 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1046-sonli qarori bilan “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi qabul qilingan va uning ilova qismida dasturda ko‘zda tutilgan asosiy yo‘nalishlar, chora-tadbirlar va ularning bajarish muddati, mas’ul bajaruvchilar, harajatlar va moliyalashtirish manbalari hamda amalga oshirish shakli va mexanizmi, kutilayotgan natija keltirilgan. Ushbu respublika miqyosidagi Davlat dasturi asosida viloyat hokimliklari tomonidan tegishli dasturlar ishlab chiqilgan.

Davlat dasturining I yo‘nalishi bo‘yicha Andijon viloyatida qishloq aholisining manfaatlarini yana ham to‘liqroq ta’minlash maqsadida qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlashga bag‘ishlangan, xususan fermer xo‘jaligi, qishloq va suv xo‘jaligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq joylarda loyihalashtirish va qurilish ishlariga oid qarorlar qabul qilindi.

II yo‘nalish yuzasidan qishloq aholi punktlarining arxitekturaviy rejalashtirilishini tashkil etish, qishloqda turar-joy va ijtimoiy soha ob’ektlari barpo etilishiini loyihalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu yo‘nalish juda katta geografik jihatlariga ega. Masalan, qishloqlarning Bosh rejalari, loyihalarini

¹ “Xalq so‘zi” gazetasi, 2008 yil 6 dekabr.

² “Xalq so‘zi” gazetasi, 2008 yil 6 dekabr

tuzishda joylarning tabiiy-iqlim sharoitlari va reliefini hisobga olishga alohida e'tabor qaratildi. Chindan ham Andijon viloyatining tabiiy sharoiti-iqlim va yer usti tuzilishi turli hududlarda har xil. Uy-joy, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurishda bunday tabiiy geografik xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Andijon viloyatining demografik vaziyati o'zgacha; ko'pbolalik, katta oilalarning mavjudligi, yoshlarning jami aholining asosiy qismini tashkil qilishi, tabiiy ko'payish, xususan tug'ilishining qishloq joylarda yuqoriligi kabilar ham arxitektura-loyiha ishlanmalarida e'tiborga loyiqdir. Bunda mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish, mustahkam qurilish bazasi (industriyasini) yaratish, qishloqlardan uy-joy hamda infratuzilma shahobchalarini barpo etilishini loyihalashtirish ishlarini olib borish maqsadida viloyat hududida uy-joy qurilishi va boshqa sharoitlarga asoslangan holda shinam, zamonaviy uy-joy qurishni amalga oshirish, aholiga imtiyozli uzoq muddatga (15 yilga mo'ljallangan) kredit beruvchi maxsus "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik-tijorat banki faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyatda alohida tuman tanlab olinib (Buloqboshi tumani), tajriba sifatida loyihalashtiriladi, "Eng yaxshi qishloq", "Eng yaxshi tuman" tanlovi o'tkazilib, maxsus rag'batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlantiriladi.

Dasturning asosiy bandlaridan biri, ya'ni III yo'nalish "Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish asosida qishloqdagi turmush sifatini oshirish" deb ataladi. O'z navbatida, bu yo'nalish qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, avtomobil yo'llarini rivojlantirish va transport xizmati, qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yangi sifat darajasiga ko'tarish hamda qishloq aholi punktlarini obodonlashtirish masalalarini qamrab oladi. Jumladan, uy-joy qurilishga tegishli chora-tadbirlar 2009-2015 yillarda mo'ljallangan bo'lib, joriy yilda 5 ming kishidan ortiq, 2010 yilda 2 ming aholidan ko'p bo'lgan aholi punktlarida qo'shimcha yer uchastkalarini aniqlash, rejadan tashqari yer ajratishni tartibga solish, qishloqlar chegaralari va joylashishini loyiha asosida boshqarib borishga katta e'tibor beriladi. Gap shundaki, aholi zich joylashgan hududlarda, xususan Andijon viloyatida qishloqlarda uy-joy qurilishi ko'proq yo'l, kanallar bo'ylab cho'zilib, natijada, aholi manzilgohlari bir-biri bilan qo'shilib, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli qimmatbaho yer maydonlari ekin ekish oborotidan chiqib ketmoqda.

Transport infratuzilmasini yaxshilash doirasida mahalliy avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi avtobus yo'nalishlarini tashkil etildi. Ayniqsa, bu masala bir-biridan uzoqda joylashgan hududlar qishloqlari uchun o'ta muhimdir. Qishloqlarda transport aloqalarini yaxshilash qishloq joylarda ham aholi joylashuvining o'ziga xos hududiy tizimini vujudga keltiradi. Bu borada qishloq fuqarolar yig'inlarining ahamiyati ham katta.

Andijon viloyati qishloq joylarda nozogeografik vaziyatni sog'lomlashtirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash ko'p jihatdan uni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini ko'tarishga bog'liq. Dasturda 1836 km yangi suv o'tkazgich va vodoprovod tarmoqlarini qurish, 300 dan ortiq QAPda suv ta'minoti ob'ektlarini qayta tiklash va yaxshilash tadbirlarni keng ko'lamda amalga oshirish mo'ljallangan.

Qishloqlar, eng avvalo, aholi yashash manzili, ya'ni sotsial muhitdir. Binobarin, ularda aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohasini yaxshilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, bu sohalarning rivojlanib borishi, kichik tadbikorlik va biznesga keng imkoniyatlar ochib berilishi yangi ish o'rinlarini tashkil qilish orqali aholi bandligini oshirishga yordam beradi. Shu maqsadda savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini ishga tushirish mo'ljallangan. Aholi soni 500 kishidan ortiq qishloqlarda kamida bitta minibank, 5000 kishidan ziyod QAP-da esa kompyuter bilan ta'minlangan zamonaviy elektron kutubxonalar tashkil qilish, pochta, telefon xizmatini yaxshilash ko'zda tutilgan.¹

Qishloq joylar katta turistik va rekreatsiya imkoniyatlariga ega. Bu yerda agroturizm, ekoturizm va mahalliy turizmni rivojlantirish ham qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga qishloqlarda zamonaviy servis sohasiga tegishli ob'ektlarni barpo etish, ko'kalamzorlashtirish (xususan, cho'l hududlarda) asosida ularni obodonlashtirish, guzar va mahallalar faoliyatini yaxshilash, bozorlar qurilishi va hududiy tashkil etilishiga e'tibor qaratish ham "Qishloq" va "Obod turmush" dasturining muhim geografik jihatlaridir.

Yuqoridagi barcha tadbirlarni bajarish qurilish bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Ushbu masala "Qishloq" dasturning IV yo'nalishi bo'yicha Andijon viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, yig'ma konstruksiyalar va mahalliy materiallardan foydalangan holda qishloqda ob'ektlar qurilishining industrial va yig'ma texnologiyalarini joriy etish, jumladan, turli hududlarda sement, g'isht, gips, ohaktosh kabi qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni barpo etildi.

Ma'lumki, Andijon viloyati qishloq tumanlari qurilish bazasi va industriyasi bilan bir xil ta'minlanmagan. Masalan, sement, g'isht zavodlari juda oz. Mavjud muammolarni hal qilish maqsadida tumanlarda turli xil qurilish materiallarini ishlab chiqarish mo'ljallangan.

Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qishloqlar taraqqiyoti va farovonligi ularni elektr energetika manbaini rivojlantirish bilan ham bog'liq. Mavjud elektr va gaz ta'minotini yaxshilash uchun viloyatning ko'pgina qishloq tumanlarida tegishli chora-tadbirlar majmui belgilangan. Darhaqiqat, hozirgi kunda Andijon viloyati qishloq tumanlarida elektr

¹ Qishloq taraqqiyoti va farovonligi. (Amaliy qo'llanma).-T.: "Ilm-ziyo", 2009.

energiyasining tanqisligi sezilmoqda. Vaholanki, aholi turmush sharoitini yaxshilashda elektr energiya ta'minoti muhim ahamiyatga ega.

Qishloqlar taraqqiyoti va aholi farovonligi asosida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni izchil chuqurlashtirish, fermerchilikni rivojlantirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash kabi o'zak masalalar yotadi. Fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish joylarning tabiiy sharoiti, aholi soni va zichligi, yer maydonlari bilan ta'minlanganligi, qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga bog'liq. Jumladan, demografik sig'imi yuqori, yer maydonlari oz bo'lgan Andijon viloyatida dehqon xo'jaligi, katta ekin maydonlariga ega bo'lgan hududlarda esa fermer xo'jaliklarini tashkil etishga imkoniyatlar qulayroq. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ham mintaqaviy xususiyatlarga ega.

Sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui kollektor va drenajlarni qayta tiklash, irrigatsiya kanallari, nasos stansiyalari, suv omborlar va quduqlardan samarali foydalanish maqsadida ularni qayta ta'mirlash kabi masalalarni o'z qamroviga oladi.

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, qishloqlarga sanoati olib kirish tufayli katta ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Masalan, Vengriya, Xitoy Xalq Respublikasining qishloq joylarida turli sanoat korxonalari barpo etilganligi sababli aholi bandligi va farovonligi oshgan. Respublikamizda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan "Qishloq" dasturining VIII yo'nalishi ham aynan qishloqda sanoat ishlab chiqarishini yanada jadal rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga qaratilgan.

Qishloq joylarda agrosanoat majmuini va sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish, eng avvalo, yoshlarni ish bilan ta'minlash, aholi daromadi va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, birgina joriy yilning o'zida faqat qishloq joylarda 460 mingga, jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish hisobidan qariyb 380 mingga yangi ish o'rni tashkil qilingan.¹ Bu o'rinlar qisman chorvachilikda, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, tikuvchilik buyumlari, poyafzal, qandolatchilik hamda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham yaratilgan. Ayni vaqtda katta hajmda yangi ish o'rinlari kasanachilik rivojlanish asosida tashkil etiladi. Bunda tikuvchilik, ipakchilik, mebel sanoati, hunarmandchilikni keng miqyosda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Andijon viloyatining qator tumanlarida xalq hunarmandchiligi qadimdan yaxshi rivojlangan. Masalan, Shahrixon qishloq tumanida pichoqchilik boy tajriba va katta tarixga ega.

¹ "Xalq so'zi" gazetasi, 2008 yil 6 dekabr

Ularga bo'lgan munosabatni tubdan yaxshilash, kasanachilika imkoniyat va imtiyozlar yaratish qishloq iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Andijon viloyati meva-konserva, uzum sharbati mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham sharoitlar qulay. Biroq so'nggi 20-25 yil mobaynida sanoatning bu tarmoqlari rivojlanmay qoldi. Binobarin, hozirgi kunda bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik negizida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, uni to'g'ri hududiy tashkil etish katta daromad manbai bo'lishi mumkin.

Andijon viloyati qishloq tumanlarida sanoat, hunarmandchilik, kosibchilikni yangi sifat darajasida rivojlantirish o'z navbatida kasb-hunar kollejlari faoliyatini yaxshilash bilan ham bog'liq. Shu bois, bunday o'rta maxsus bilim yurtlarini joylarning ehtiyoji va xo'jaligining ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv jihozlari hamda yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashga ham e'tibor qaratish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Aholi sog'lig'ini yaxshilash, uning tibbiy madaniyatini oshirish, ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida so'z yuritiladi. Bu bejiz emas albatta, chunki, har qanday jamiyat yoki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining integral ko'rsatkichi, eng avvalo, aholi salomatligi va uning mas'lumotligiga bog'liq. Shu sababdan ham oila, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga respublikamizda katta e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, qishloq joylardagi nozogeografik vaziyat, ya'ni aholining kasallanishi, unga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi va madaniyati shaharlarga qaraganda ancha farq qiladi. Qishloqlarning katta-kichikligi, ularning uzoq-yaqinligi ham ushbu soha rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qishloq aholisi sog'lig'ini yaxshilashda joylarning sanitar-gigiena tizimini, ekologik infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda qishloq vrachlik punktlari, qishloq va markaziy tuman shifoxonalarini yangi jihozlar bilan ta'minlash, ularni to'g'ri hududiy tashkil qilish katta amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, dastur rejasida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish, aholining barcha qatlamlari va, ayniqsa, nogironlarni ijtmoiy muhofaza qilish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Qishloq vrachlik ambulatoriya, QVP, qishloq va markaziy tuman shifoxonalarini joylashtirishda nemis olimi V.Kristallerning "markaziy o'rinlar" g'oyasiga amal qilinsa, yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Bunda aholi va aholi punktlari joylashuvining hududiy tizimi va tarkibi asos qilib olinadi.

Mazkur g'oya ta'lim tizimiga tegishli o'quv muassasalarini hududiy tashkil etishda ham ahamiyatlidir. Bu borada 2009-2013 yillar davomida mavjud umumta'lim maktablari

ta'mirlandi, yangilari qurildi. Xususan, kasb-hunar kollejlari, ularning yo'nalishi va joylanishiga e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash kerakki, qishloq tumanlarida tashkil etilgan kasb-hunar kollejlari ayrim hollarda joylar xo'jaligining ixtisoslashuvi, ekologik va demografik vaziyatiga mos kelmaydi. Pedagogika va tibbiyot kollejlaridan tashqari, boshqa yo'nalishdagi o'rta maxsus bilim yurtlari qishloq tumanlarining bugungi ehtiyoji va istiqboldagi rivojlanish xususiyatlariga muvofiqlashtirilishi talab etiladi.

Umuman olganda, "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili Davlat dasturida qishloq joylarda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning tashkiliy, huquqiy va amaliy masalalari ham o'z aksini topgan. Dasturdagi barcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi katta moliyaviy mablag'ni talab qiladi. Masalan, joriy yilning o'zida belgilangan rejalarni bajarish uchun 2 trillion 6,2 milliard so'mdan 3 mlrd. mablag' sarflangan.¹ Ayni vaqtda Dasturning hayotga tatbiq etilishi o'z, navbatida, qishloq joylarning hududiy xususiyatlari-geografik o'rni, tabiiy-iqlim sharoiti, yer usti tuzilishi, xo'jaligining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibi, geoekologik va nozogeografik vaziyati kabi omillarni e'tiborga olishni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz mintaqaviy siyosatida qishloqlarga bunday ustuvor ahamiyat berish tasodifan emas. Mazkur masala rasmiy ravishda bundan ancha avval, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 120-sonli maxsus qarorida alohida ko'rib chiqilgan edi. Ushbu qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyat Kengashlariga qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish va zarur hollarda, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, ularning maqomini o'zgartirish (shaharchalar toifasiga kiritish) bilan bog'liq tegishli iqtisodiy-huquqiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish tavsiya etilgan).²

Yuqoridagi Prezident qarorini amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2009 yil 13 martdagi 68-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini qabul qilgan. Bu qarorga ilova sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesi va xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan ayrim qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan ro'yxat keltirilgan va aholi punktlari toifalarining

¹ "Xalq so'zi" gazetasi, 2008 yil 6 dekabr

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori.

o'zgartirilishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi qayd etilgan.

II. Bob. Andijon viloyati qishloq tumanlari markazlarining iqtisodiy rivojlanishi

II.1. Andijon viloyati aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi

Andijon viloyati 1941 yil 6 mart kuni tashkil etilgan. Tarkibida 14 ta tuman, 2 ta viloyatga va 9 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar, 80 ta shaharcha hamda 93 ta qishloq fuqarolar yig'ini hamda 460 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud. (2012 yil).

Andijon viloyati tarkibida 14 qishloq tumanlari (Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Jalaquduq, Izboskan, Marxamat, Oltinko'l, Paxtaobod, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon, Qo'rg'ontepa) va 11 shahar mavjud (Andijon, Xonobod, Asaka, Marhamat, Oxunboboev, Paxtaobod, Poytug', Xo'jaobod, Shahrixon, Qorasuv, Qo'rg'ontepa,). Andijon shahri — viloyatning markazi.

Viloyat respublikaning eng chekka qismida joylashgan va O'zbekistonning sharqiy darvozasi sanaladi. Uning maydoni 4,2 ming km.kv ni tashkil etib, O'zbekiston Respublikasining 0,9 foiz hududini egallaydi, xolos. Andijon viloyati hududidan Qirg'iziston va Xitoyning dengiz portlariga boradigan yo'llar o'tgan. Shu bois, viloyatning iqtisodiy geografik o'rnini ancha qulaydir xamda uning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir etadi.

Andijon viloyatida respublikaning 9 foizdan ortiq aholisi yashaydi. Hududda aholi juda zich joylashgan bo'lib, bu ko'rsatkich nafaqat respublikada, balki MDH bo'yicha eng yuqori zichlik ko'rsatkichlariga ega (603 kishi).

1-jadval

Andijon viloyati qishloq tumanlari haqida ba'zi ma'lumotlar

t/ r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Ma'muriy markazi	Maydo ni ming kv. km	Aholisi, ming kishi		1989- 2010 yillarda o'sish %	Aholi zichligi , 1 kv.km

					1989 y	2010 y		
1	Andijon	24.12.1962	Kuyganyor sh.	0,37	125,3	206,4	164,7	557,8
2	Asaka	24.12.1962	Asaka sh.	0,26	118,8	199,3	167,8	766,5
3	Baliqchi	24.12.1962	Baliqchi sh.	0,34	104,6	156,8	149,9	461,2
4	Buloqboshi	09.04.1992	Buloqboshi sh.	0,18	-	114,5	-	636,1
5	Bo'z	26.12.1964	Bo'z sh.	0,20	28,5	56,5	198,2	198,2
6	Jalaquduq	12.04.1973	Oxunboboev sh.	0,37	86,1	152,1	176,6	411,1
7	Izboskan	24.12.1962	Poytug' sh.	0,28	111,5	193,2	173,3	690,0
8	Marxamat	07.12.1970	Marhamat sh.	0,32	76,7	138,7	180,8	433,4
9	Oltinko'l	03.04.1978	Oltinko'l sh.	0,21	98,6	140,3 I	142,3	677,6
10	Paxtaobod	07.12.1970	Paxtaobod sh.	0,26	101,1	153,3	151,6	589,6
11	Ulug'nor	26.12.1973	Oqoltin sh.	0,42	32,7	49,8	152,3	118,6
12	Xo'jaobod	24.12.1962	Xo'jaobod sh.	0,23	118,2	90,2	76,3	392,2
13	Shahrixon	24.12.1962	Shahrixon sh.	0,29	99,8	236,5	237,0	815,5
14	Qo'rg'ontepa	24.12.1962	Qo'rg'ontepa sh.	0,47	82,6	170,1	205,9	361,9
	Viloyat jami			4,30	1721,0	2530,3	147,0	588,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Geologik tuzilishi ancha murakkab va unda turli geologik davrlarda paydo bo'lgan xilma-xil yer osti qazilma boyliklardan xalq xo'jaligida foydalanib kelinadi. Uncha katta bo'lmagan neft konlari Andijon, Asaka, Janubiy Olamushuk adirlari va adir orti hududlarida topilgan. Bu xavzalardan qazib olingan neft xom-ashyosi Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga yuboriladi. Ta'kidlash joizki, neft va gaz boyliklari viloyat mineral xom-ashyo zahiralarning asosini tashkil qiladi. Hozirda viloyat hududida Andijon, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Xo'jaobod kabi unchalik katta bo'lmagan 8 ga yaqin neft va neft-gaz konlari ishlab turibdi.

Suv manbalari qadimdan sug'orma dexqonchilikning joylashuvi va rivojlanishining asosiy omili vazifasini o'taydi. Andijon viloyati hududidan oqib o'tuvchi daryolar Farg'ona va Oloy tizmalaridagi doimiy qor va muzliklarning erishidan hosil bo'ladi. Eng yirik daryo Qoradaryo bo'lib, uning uzunligi 143 km.ga tengdir. Aytish joizki, viloyat O'zbekistonning boshqa mintaqalariga qaraganda suv resurslariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Uning muhim gidrografik elementlari qatoriga Qoradaryo va uning irmoqlari, ya'ni Moylisuv, Oqbo'yra, Aravonsoy, Shahrixonsoy va Tentaksoy kiritiladi. Viloyat hududining sharqiy qismida Qirg'iziston Respublikasi hududiga tutash joyda Andijon suv ombori va 100 ming kVt.soat quvvatga ega bo'lgan Andijon GES i bunyod etilgan. Boshqa suv manbalaridan, viloyat hududidan Katta Andijon, Katta Farg'ona hamda Janubiy Farg'ona kanallari oqib o'tadi.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental xususiyatga ega bo'lib, quruq ob-havo sharoiti shakllangan. Atrofning baland tog' tizmalari bilan o'ralganligi Farg'ona vodiysiga Sibirning sovuq havo massalarini kirib kelishiga to'sqinlik qilishi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq bo'lib, iyul oyining o'rtacha harorati 27,3 °S ni, qishi nisbatan sovuq, yanvar oyining o'rtacha harorati esa -3 °S ni tashkil etadi. Vegetatsiya davri 217 kun, viloyat hududida yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm. ni tashkil etadi. Yog'in miqdori vodiylar markazidan tog'larga tomon ortib boradi.

Viloyat markazi Andijon shahri aholi soniga ko'ra Respublikaning Toshkent, Namangan va Samarqanddan keyingi to'rtinchi yirik shahri hisoblanadi.

Demak, Andijon viloyati qishloq aholi manzilgohlarning vujudga kelishi hududlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik hamda demografik xususiyatlari bilan bog'liq holda shakllangan va rivojlanib bormoqda.

Andijon viloyati hududi va aholisi nisbiy ko'rsatkichlarini taqqoslashning o'zi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining asosiy xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Bunda, eng avvalo, viloyat demografik sig'imining juda yuqoriligi, aholining o'ta zich joylashuvi, er resurslarining

tanqisligi ko`zga tashlanadi. Aynan ana shunday vaziyat uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik yo`nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Ma'muriy jihatdan Andijon viloyati viloyatga bo`ysunuvchi 3 ta shahar, 14 qishloq tumanlari, 8 ta tumanga bo`ysunuvchi sha-harlar hamda 89 ta shaharcha va 90 ta qishloq fuqarolar yig`in-laridan iborat. qishloq aholi punktlari 458 ta. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ko`rsatishicha, viloyatning 7 ta, ya'ni jami qishloq tumanlarining teng yarmi bir sanada - 1962 yilda tashkil etilgan. Eng "yangi" qishloq tumani Buloqboshi bo`lib, u 1992 yilda asosan Xo`jaobod tumanidan ajralib chiqqan.

Viloyat geografiyasining o`ziga xos xususiyatlaridan biri shu-ki, bu erda qishloq tumanlari "zich" va maydoni deyarli bir tekis taqsimlangan. Shunchalik miqdorda, ya'ni 14 ta qishloq tumanlari respublikamizda Qoraqalpog`iston Respublikasi, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham mavjud, ammo ularning hududi Andijon viloyatidan bir necha marta katta. Viloyatda har bir tumanga atigi 0,31 ming kv. km.dan maydon to`g`ri keladi. Bu mamlakatimiz bo`yicha eng oz ko`rsatkichdir. Bu erda "geografiylik koeffitsienti" 2,61 ga teng. Boshqacha qilib aytganda, eng katta tuman - Qo`rg`ontepa eng kichik tuman - Buloqboshidan 2,6 marta katta, vaholanki, bunday hududiy tafovutlar boshqa mintaqalarda, hatto qo`shni Namangan va Farg`ona viloyatlarida ham sezilarli darajada ko`proq.

Uncha katta maydonga ega bo`lmagan viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o`ynaydi. U mamlakatimizning 6,7 foiz yalpi ichki mahsulotini, 12,7 % sanoat va 9,7 foiz qishloq xo`jalik mahsulotini ta'minlaydi. Viloyatning xo`jaligi industrial-agrar yo`nalishga ega bo`lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to`qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla etishtirishga ixtisoslashgan.

2009 yilda amalga oshirilgan urbanistik islohotlar tufayli viloyat shaharchalari 5 tadan 78 taga ko`paydi. Hozirgi kunda jami 11 shahar va 83 ta shaharchalarda jami aholining 53,5 foizi yashaydi. Bu ko`rsatkich bo`yicha Andijon Namangan va Farg`ona viloyat-laridan keyingi 3-o`ringa chiqib oldi. Taqqoslash uchun: 2008 yilda urbanizatsiyaning umumiy ko`rsatkichi 29,2 % yoki respublika darajasidan 6,6 punktga past bo`lgan, endi esa viloyat o`rtacha ko`rsatkichidan yuqori turadi.

Tashkil etilgan 78 ta yangi shaharchalarning 18 tasi birgina Andijon tumaniga to`g`ri keladi; 11 ta shaharcha Oltinko`lda, 9 ta Marhamatda, Jalaquduq va Xo`jaobodda 6 tadan paydo bo`lgan; bittadan agroshaharchalar Ulug`nor va Qo`rg`ontepa tumanlarida tashkil etilgan.

2009 yilgacha Oltinko`l, Baliqchi va Ulug`nor tumanlarida birorta shahar joylar bo`lmagan. Andijon tumanida hozirgi shahar aholisining 93,1 %, Buloqboshida 85,1 %, Marhamatda 82,2 foizi aynan shu yilda shakllangan. Shunday qilib, eng so`nggi shaharlar tarkibidagi o`zgarishlar asosan qishloq yoki "ma'muriy" urbani-zatsiya xususiyatiga ega bo`lgan.

Andijon viloyati ko'p qishloqli emas, katta qishloqlarga boy hudud hisoblanadi. Qishloqlar soni bo'yicha u respublikamizda eng oxirgi o'rinlarda (faqat Sirdaryo va Namangan viloyatlaridan oldinda), vaholanki, aholi soni bo'yicha Andijon 5-o'rinda turadi. O'rtacha har bir qishloq aholi punktiga 2008 yilda 3236 kishi, 2009 yilda 2535 kishi to'g'ri kelgan. Agar yangi shaharlar tashkil etilganida qabul qilingan me'yor, ya'ni eng kamida 2000 kishi aholi soniga ega bo'lishi (tegishli shaharsozlik talablari mavjud bo'lgan holda) e'tiborga olinsa, viloyatning ko'pchilik qishloqlari shaharcha maqomini olgan bo'lar edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ba'zi viloyatlarda "ikkimininglik" qishloqlar deyarli qolmagan, bu erda esa ularning soni juda ko'p.

Andijon viloyatida aholi soni 250 kishigacha bo'lgan qishloq aholi punktlari deyarli yo'q darajada; 500 kishigacha aholi soni bor qishloqlar viloyatda atigi 23 ta va ularda bor-yo'g'i 0,6 % aholi istiqomat qiladi. Bu sinfdagi qishloqlarning asosiy qis-mi Bo'z va Izboskan tumanlarida joylashgan, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Oltinko'l, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepada esa ular umuman yo'q.


Har birida 500-1000 kishilik qishloqlar geografiyasi Jalaquduq, Bo'z va Ulug'nor, undan keyingi guruh qishloqlar tarkibida Qo'rg'ontepa, Baliqchi, Jalaquduq va Bo'z tumanlari ajralib turadi. Katta qishloqlar, ya'ni 2000-3000 aholisi bor manzilgohlar Shahrixon, Izboskan va Jalaquduqda ko'proq uchraydi. Yirik qishloqlar geografiyasi asosan Shahrixon, Asaka tumanlarida, jumladan, Asakada jami shu toifadagi qishloqlarning 31 tasi joylashgan.

Andijon viloyatida 32 ta eng yirik, ya'ni har birida 5000 va undan ortiq aholi joylashgan qishloqlar mavjud. Ularga jami qishloq aholisining 1/5 qismiga yaqini to'g'ri keladi. Bunday yiriklikdagi qishloqlar birgina Shahrixon tumanida 8 ta: Do'rmon, Xo'jaobod, Ahmad Xo'ja, Oqoltin, Saroy, Yangi Naynov, Yangiyo'l, Nazarmahram; Qo'rg'ontepada 5 ta: Qo'rg'ontepa, Qo'shtepa, Ma'murobod, Chiroqtamg'a, Xonobod; Izboskan va Asaka tumanlarida 3 tadan. Ular jumlasiga Oyim, Buloqboshi, Uyg'ur, Mirobod kabi "megaqishloqlar" ham kiradi. Faqat Bo'z, Ulug'nor va Xo'jaobod tumanlarida eng yirik qishloqlar yo'q, xolos.

Qishloqlar geografiyasi shaharlarga qaraganda joylarning tabiiy sharoiti, xususan, er-suv, agroiqlimiy resurslarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda qishloqlar g'uj yoki asosiy yo'l va kanal-ariqlar bo'yida zanjirsimon joylashgan, o'ziga xos "qishloq aglomeratsiyalarini" vujudga keltirgan.

Bevosita urbanistik tarkibga kelsak, viloyatda 1 ta yirik - Andijon shahrida 365 ming kishi aholi bor; Asakada 57, Shahrixonda 65 ming kishi yashaydi. Demak, respublikamizning ayrim mintaqalaridan farq qilib, bu erda o'rta bo'g'in shaharlar har holda mavjud. Xonobod, Oxunboboev, Poytug', Qorasuv, Qo'rg'ontepa va Paxtaobodning har birida 20-30 mingdan aholi istiqomat qiladi. qolgan 85 shahar joylar kichik shahar manzilgohlarini tashkil qiladi.

Маъмурий картаси



Хуҷанди тумани Маркази-Хуҷанди-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,37 миғз аз км Аҳоли 112,9 миғз киши Пастайи тумани Маркази-Пастайи-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,29 миғз аз км Аҳоли 112,9 миғз киши Қургонҳои тумани Маркази-Қургонҳои-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,48 миғз аз км Аҳоли 108,4 миғз киши	Ушугер тумани Маркази-Ушугер-и-и Тоҷикистон-1972-8 36.12 Хуҷанд-4,41 миғз аз км Аҳоли 45,1 миғз киши Қурғонҳои тумани Маркази-Қурғонҳои-и Тоҷикистон-1992-8 3,94 Хуҷанд-4,18 миғз аз км Аҳоли 96,5 миғз киши Бир тумани Маркази-Бир-и Тоҷикистон-1998-8 3,94 Хуҷанд-4,28 миғз аз км Аҳоли 90 миғз киши	Жаҳонгир тумани Маркази-Жаҳонгир-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,37 миғз аз км Аҳоли 112,9 миғз киши Вобоси тумани Маркази-Вобоси-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,38 миғз аз км Аҳоли 176,9 миғз киши Марғонг тумани Маркази-Марғонг-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,32 миғз аз км Аҳоли 118,8 миғз киши
Ахшоб тумани Маркази-Ахшоб-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,24 миғз аз км Аҳоли 174,9 миғз киши Қасбҳои тумани Маркази-Қасбҳои-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,34 миғз аз км Аҳоли 41,8 миғз киши	Оғамон тумани Маркази-Оғамон-и-и Тоҷикистон-1924-8 29.49 Хуҷанд-4,21 миғз аз км Аҳоли 115,5 миғз киши	

Машиаб 1:600 000

Viloyat markazi-Andijon negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Uning “yoʻldoshlari” orasida, eng avvalo, oʻzbek avtomobilsozlari shahri Asaka hamda Shahrixon, Marhamat, Poytugʻ kabilar ajralib turadi.

Mintaqa shaharlari turli funktsiyalarni bajaradi: Andijon-koʻp funktsiyali, iqtisodiy, siyosiy, madaniyat va fan markazi; Asaka va Shahrixon-sanoat markazlari, Qoʻrgʻontepa, Xoʻjaobod, Oxunboboev, Paxtaobod, PoytuGʻ, Ulugʻnor, Baliqchi, Buloqboshi, Boʻz, Oqoltin, Oltinkoʻl, Kuyganyor - agrosanoat shahar va shaharchalar, tuman maʼmuriy markazlari, Qorasuv, Xonobod - transport va savdo markazlari. Qolgan shahar joylarning aksariyati agroshaharchalar hisoblanib, ularning ayrimlarida hozircha shahar paydo qiluvchi tarmoqlar sust rivojlangan.

Andijon viloyatining ikkinchi muhim boyligi-bu uning mehnat resurslaridir (birinchisi-agroiqlimiy resurslar). 1 yanvar 2012 yil maʼlumotlariga koʻra, viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1491 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 1115 va iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1079 ming kishini tashkil qiladi. Jami band boʻlganlarning 71,4 foizi moddiy ishlab chiqarishda, qolganlari nomoddiy sohalarga toʻgʻri keladi. Sanoatda 12,0 %, qishloq va oʻrmon xoʻjaligida 38,9 %, transport va aloqada 2,6 %, qurilishda 5,3 %, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy texnika taʼminotida 7,8 % band.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohalaridan taʼlim, madaniyat, sanʼat, fan va ilmiy xizmatlarda 11,1 %, sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy taʼminotda 6,0 %, uy xoʻjaligi va aholiga maishiy xizmat koʻrsatishda 2,5 % iqtisodiy faol aholi ishlaydi. Bir yilda jami 77,9 mingta ish oʻrinlari yaratilgan boʻlib, ularning 81,6 foizi qishloq joylarga toʻgʻri keladi.

II.2. Tuman markazlari iqtisodiy rivojlanishining hududiy xususiyatlari Andijon viloyati xoʻjaligi, avval eʼtirof etilganidek, industrial-agrar yoʻnalishga ega. Bu turdagi mintaqalar mamlakatimiz iqtisodiy makonida uncha koʻp emas. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 26,7 foizini sanoat, deyarli shunchasini qishloq xoʻjaligi taʼminlaydi; transport va aloqaning ulushi 6,5 %, savdo va umumiy ovqatlanishniki 6,3 %, qurilishniki - 4,5 % va h.k (2011 y.).

Agar yuqoridagi raqamlar aholining bandlik tarkibi bilan taqqoslansa, xoʻjalik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi va mehnat unumdorligi haqida maʼlum tasavvurlarga ega boʻlish mumkin. Masalan, sanoatda band boʻlgan 12,0 % aholi YaHM ning 2 barobaridan koʻprogʻini yaratsa, agrar sohada, aksincha, 38,9 foiz ishlovchilar undan kam, yaʼni 26,4 foiz mahsulot ishlab chiqaradi. Transport va aloqada bu nisbat 2,4 va 6,5 %, qurilishda 5,3 va 4,5 %, savdo va umumiy ovqatlanishda 7,8 va 6,3 foizga teng. Demak, iqtisodiyot tarmoqlari orasida sanoat, transport va aloqada mehnat unumdorligi yuqoriroq.

Aholi jon boshiga 1275 ming so'mlik yalpi hududiy mahsulot to'g'ri keladi, xalq iste'mol mollari esa 1010,3 ming so'mga teng. Viloyat respublika xalq iste'mol mollarinig (XIM) 29,0 foizini beradi va bunga asosan nooziq-ovqat mahsulotlari hisobidan erishiladi.

Faoliyat ko'rsatilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining soni ham oshib bormoqda. Ularning umumiy soni 33976 ta, shu jumladan kichik korxonalar 4183 ta va mikrofirmalar 29793 ta. Ushbu sektorning YaHM ulushi 51,0, sanoatda, 17,2 %, qishloq xo'jaligida 99,4 %, qurilishda 93,0, chakana savdoda 47,3 %; bu sohaning 14,3 foiz mahsuloti eksport qilinadi. Jami kichik biznes sub'ektlari tomonidan 2011 yilda 53955 yangi ish o'rinlari yaratilgan. Demak, viloyatda yaratilgan ish o'rinlari asosan shu sektor zimmasiga tushadi.

Mustaqillik yillarida Andijon viloyati sanoati tez rivojlanib bordi va respublika iqtisodiy makonida o'ziga xos o'sish qutbiga aylandi. Bu, eng avvalo, viloyatning Asaka shahrida joylashgan avvalgi "UzDEU avto" – hozirgi "GM Ozbekiston" qo'shma korxonasi asosida ro'y berdi. Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida bu erdagi yirik tog'-metallurgiya kombinatining ahamiyati qanday bo'lsa, Andijon viloyatida ham ushbu avtomobilsozlik zavodi mavqei shunday. Ularsiz mazkur viloyatlar iqtisodiyoti butunlay boshqacha ko'rinishda bo'ladi.

Asakadagi zavod qurilishi 1994 yilda boshlanib, undan 1996 yilda birinchi o'zbek avtomobili ishlab chiqarilgan. Umumiy loyiha quvvati bir yilda 200 ming dona. Zavod konveyeridan turli rusumdagi zamonaviy avtomobillar: "Tiko", "Neksiya 1 va 2", "Matiz", "Damas", "Lasetti"lar jahon bozorida, xususan MDH mamlakatlarida yaxshi mavqelarni zabt etgan. Hozirgi vaqtda aytish mumkinki, respublikamizda Andijon deganda Asaka, Asaka deganda engil avtomobillar tushuniladi.

Shunday qilib, mashinasozlik, aniqrog'i avtomobilsozlik viloyat sanoati va umuman mintaqa iqtisodiyotining etakchi tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga jami yaratilgan sanoat mahsulotining 77,7 foizi to'g'ri keladi. Engil sanoat mahsulotining qiymati 9,6 %, oziq-ovqat - 2,3 %

Andijon viloyati sanoatining o'ta tor ixtisoslashuvi tomon borishini ko'rsatadi. Chindan ham viloyat hozirgi sanoat mahsulotida mashinasozlik mavqei yildan-yilga oshib bormoqda. Bu, albatta, nisbiy ko'rsatkich, biroq uning zamirida ikki jarayon yotibdi: birinchidan, avtomobilsozlikning yuqori sur'atda rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan, boshqa sanoat tarmoqlarida bu ko'rsatkichlarning pastligini anglatadi. Binobarin, viloyatda an'anaviy, xususan engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini ham jadal rivojlanishi talab etiladi.

Andijon viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibi
(jami mahsulot qiymatiga nisbatan foizda)

Sanoat tarmoqlari	2000y.	2011 y.	Shu davrda o'zgarish, +, -
Jami sanoat mahsuloti	100,0	100,0	-
shu jumladan:			
Elektr energetika	1,3	0,6	-0,7
Kimyo va neft kimyosi	2,7	2,5	-0,2
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	53,3	77,7	+24,4
qurilish materiallari sanoati	2,0	0,8	-1,2
Engil sanoat	17,8	9,6	-8,2
Oziq-ovqat sanoati	6,4	2,3	-4,1
Un-krupa, omuxta em sanoati	13,1	2,7	-10,4
Boshqa sanoat tarmoqlari	3,4	4,0	+0,6

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumot-lari asosida hisoblab chiqilgan.

Bunday siyosat mavjud mehnat resurslaridan ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarda kengroq foydalanish hamda mintaqqa iqtiso-diyotini diversifikatsiya qilish jihatidan ham to'g'ri hisoblanadi. Qolaversa, viloyatning demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda, xalq iste'mol mollari, ayniqsa, engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, 2011 yilda jami XIM tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 4,8 foiz va engil sanoat mahsulotlari 2,5 foizni tashkil qiladi, xolos. Bu, tabiiyki, juda past ko'rsatkich. Shu bois, bu tarmoqlarni ham ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturi nuqtai nazaridan rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlari doirasida ishlab chiqarish hajmi va asosiy sanoat korxonalari turlicha. Viloyatda jami yirik sanoat korxonalari 53 ta. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Andijon viloyati sanoat korxonalarida ishlab chiqarish mujassamlashuvi juda yuqori; bu erda, boshqa qator mintaqalarga qaraganda sanoat korxonalarining soni oz, lekin "oz bo'lsada-soz", aksariyati katta korxonalardir.

Viloyatda taxminan 500-600 mln. kVt soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Bu 100 ming kVt quvvatiga ega bo'lgan Andijon GESidan olinadi. Kimyo va neft-kimyo sanoatida

Janubiy Olamushuk, Andijon, Polvontosh konlaridan oz miqdorda (90-100 ming t atrofida) neft qazib olinadi va u Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga jo'natiladi. Ushbu tarmoqda "Uz Koran Ko" va "Uz Dongju Peing Ko" qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining eng yirik korxonasi, albatta, "GM Ozbekiston" QK hisoblanadi. U tarmoqning 82,3 foiz mahsulotini ta'minlaydi. Shuningdek, bu erda "Pritsep" AJ, "UzKodji", "UzTong Xong KO", "Uz Dong Yang Ko", "Uz Sam Yung Ko", "Uz Dong Vong Ko" qo'shma korxonalari mavjud (aksariyati Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda yaratilgan). Yuqoridagilardan tashqari, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmog'iga qarashli qator tajriba va ta'mirlash mexanika va boshqa zavodlar bor ("Marhamat - ETZ", "Andijonkabel", Avia mexanika zavodi va h.k).

Bu korxonalar ichida mahsulot qiymati bo'yicha "UzDong Yang Ko" qo'shma korxonasi avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi - u tarmoqning 5,7 foiz mahsulotini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, Asaka avtomobil zavodi nafaqat viloyat, balki butun Farg'ona vodiysi sanoatining rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Zavod ehtiyoj qismlari mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ko'proq tayyorlash maqsadida qo'shni viloyatlarda ham unga turdosh yoki yordamchi sanoat korxonalari barpo etilgan (masalan, Namanganda, quvasoyda va boshqa shaharlarda).

Qurilish materiallari sanoati sust rivojlangan, u asosan g'isht ishlab chiqaruvchi zavodlardan iborat. Ilgari katta mavqega ega bo'lgan engil sanoatda ham o'sish sur'atlari uncha katta emas. To'g'ri, xorijiy sarmoyalar hisobidan qator to'qimachilik korxonalari barpo etilgan (ularning eng yirigi Shahrixondagi "Anteks" QK hisoblanadi). Biroq, bu sur'atlar mavjud xomashyo, mehnat resurslari va ehtiyoj nuqtai nazaridan qoniqarli emas. Buxoro to'qimachilik kombinatiga o'xshash, sobiq Ittifoq davrida qurilgan Andijon to'qimachilik kombinati ham hozirgi kunda chuqur depressiv holatda.

Paxta tozalash zavodlari barcha qishloq tumanlarida joylashgan. Ular bir yilda ob-havo, paxta hosiliga qarab 95-100 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqaradi. Xuddi shunday sharoitda 20-23 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i olinadi (Andijon va Asaka shaharlari). Umuman olganda, bir yilda 250,0 ming avtomobil, 718 ming dona podshipnik, 6184 dona velosiped (uni "Avia mexanika zavodi" AJ beradi), 8362 tonna lak bo'yog'i ("UzDongju Peing Ko" QK) ishlab chiqariladi. Shuningdek, o'rtacha bir yilda 103-120 ming tonna atrofida un olinadi. Uni Andijon va Asaka, Qo'rg'ontepa don mahsulotlari AJ beradi. Farg'ona vodiysida Qo'qondan tashqari Andijonda ham spirt zavodi - "Biokimyo" AJ bor.

Tahlillar ko'rsatishicha, so'nggi yillarda to'qimachilik sanoatidagi vaziyatlar ta'sirida engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish birmuncha kamayib bormoqda. Masalan, 2011 yilda

5589 ming kv.m ip gazlama (2008 yilda 6327 ming kv.m), 561 ming kv. m noto`qima materiallar (1096 ming kv. m) tayyorlangan. Ayni vaqtda paypoq ishlab chiqarish qayta yo`lga qo`yilmoqda, tikilgan buyumlar, trikotaj mahsulotlari ham sezilarli darajada ko`paymoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlaridan 2011 yilda 16,8 ming tonna o`simlik yog`i (2008 yilda -20,5 ming t), 5285 ming shartli banka meva va sabzavot konservalari, 21,2 ming t go`sht va go`sht mahsulotlari, 35,1 ming t sut va sut mahsulotlari olingan. Omuxta em ishlab chiqarish 56,8 ming tonnani tashkil qilgan.

Sanoat geografiyasiga qaraganda Andijon shahri viloyat yalpi sanoat mahsulotining 16,1, Asaka 65,8 foizini, demak, bu ikki shahar uning 4/5 qismidan ko`prog`ini beradi. Qishloq tumanlari orasida Andijon, Shahrixon, Asaka, Jalaquduq biroz ajralib turadi. Xonobod shahrining ulushi 2011 yilda 3,9 foizga teng bo`lgan.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, viloyat bo`yicha o`rtacha 1404,8 ming so`mlik mahsulot ishlab chiqarilgani holda, bu ko`rsatkich Asaka shahrida 39792,8, Xonobodda 3612,0 ming so`mga barobar. Qishloq tumanlari ko`rsatkichlari o`rtachadan past, eng past daraja Ulug`nor (13,7 ming so`m), Paxtaobod (66,8 ming so`m) va Buloqboshida (72,8 ming so`m) qayd etiladi.

XIM bo`yicha olganda, ularning 89,6 foizi birgina Asaka shahriga to`g`ri keladi. Viloyat markazining bu boradagi hissasi 4,0 %, Xo`jaobod tumaniniki 1,2 %, Qo`rg`ontepaniki 1,0 % . Qolgan qishloq tumanlarida salohiyat yo`q darajada. Aholi jon boshiga hisoblaganda ham xuddi shunday tafovutlar ko`zga tashlanadi - eng yuqori ko`rsatkich Asaka shahrida, qolgan hududlarda bu ko`rsatkich past darajada.

Aholi zich, aholi punktlari katta bo`lgan Andijon viloyatida ijtimoiy sohalar rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, mavjud mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, aholi bandligini oshirish orqali uning turmush sharoitlarini yaxshilash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi.

Odatda, aholining sifat jihatidan rivojlanishi, barkamol darajada shakllanishi uning har tomonlama sog`lom, bilimli bo`lishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan sog`liqni saqlash va ta'lim tizimlariga alohida ahamiyat berish kerak bo`ladi.

Viloyatda tibbiyot muassasalarining umumiy soni 75 ta bo`lib, ularning yarmidan ko`pi byudjet tizimida faoliyat ko`rsatadi. Har 10000 kishiga 47,3 ta bemor o`rinlari to`g`ri keladi. Ambulatoriya-poliklinikalar soni 481 ta, vrachlar har 10000 ming kishiga 24,1, o`rta meditsina xodimlari 93,4 ta. Bu raqamlar mintaqa sog`liqni saqlash sohalarining yaxshi yo`lga qo`yilganligidan dalolat beradi.

Qishloq vrachlik punktlari (QVP) 339 ta yoki har bir qishloq tumanida 24,2 tadan. Agar viloyatda jami 458 ta qishloq aholi punktlari mavjudligi e'tiborga olinsa, ushbu sohaning muhim

geografik xususiyatlari yaqqol namoyon bo`ladi: deyarli har bir aholi punktida bittadan QVP mavjud. Bu ham bo`lsa qishloq aholi punktlarining kattaligini natijasidir.

Qishloq tumanlari kesimida kasalxonadagi o`rinlar soni Qo`rg`ontepa va Marhamat tumanlarida o`rtacha ko`rsatkichdan ko`proq - 62,5 va 42,5. Shu bilan birga, 2009 yil yakunlari mazkur soha-ning Asaka, Bo`z va Izboskan tumanlarida biroz past rivojlanganligini ko`rsatadi. Har 10 ming kishiga to`g`ri keladigan ambulatoriya-poliklinika muassasalari o`rtacha 151,8 bo`lgan holda, u Asaka shahrida 227,9 ta, Qo`rg`ontepa tumanida 251,0 ta teng, nisbatan pastroq ko`rsatkichlar Oltinko`l (125,7), Andijon (104,8) qishloq tumanlarida hamda Xonobod shahrida (98,3) ko`zga tashlanadi. Boshqa mintaqalarda bo`lganidek, bu erda ham viloyat markazi yonida joylashgan qishloq tumanlarida ijtimoiy sohalar bilan ta'minlanganlik biroz past bo`ladi, sababi bu joylarning aholisi katta shahar imkoniyatlaridan foydalanadi.

Andijon viloyatida doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari 557 ta, umumta'lim maktablari 740 ta bo`lib, ularda o`quvchilar soni 2009-2010 o`quv yilida 433 ming yoki har bir maktabda o`rtacha 585 kishidanga to`g`ri kelgan.

Akademik litseylar jami 12 ta, ularning ko`pchiligi Andijon shahrining o`zida joylashgan; talabalar soni 8750 ta. Viloyatning barcha qishloq tumanlari va shaharlarida kasb-hunar kollejlari mavjud: umumiy soni 117 ta, talabalar – 125,2 ming kishi.

Andijon shahri mamlakatimizda oliy ma'lumotli kadrlar etkazib berishda muhim mavqega ega. Bu erda 5 ta oliy o`quv yurti, shu jumladan universitet, tibbiyot instituti bor; Andijon tumanining ma'muriy markazi Kuyganyor shaharchasida qishloq xo`jaligi (avvalgi paxtachilik) instituti joylashgan. Viloyat oliy o`quv yurtlarida jami 16417 nafar talaba tahsil oladi.

Ijtimoiy sohalar orasida aholiga pullik xizmat ko`rsatish va chakana savdo ham katta ahamiyatga ega. 2011 yil yakunlariga ko`ra, viloyatda aholi jon boshiga to`g`ri keladigan pullik xizmatlar hajmi 222,6 ming so`mni tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich Andijon shahri hisobidan shakllangan; viloyat markazida 602,9 ming so`mga teng. Qishloq tumanlarida esa mazkur ko`rsatkich Xo`jaobod, Baliqchida birmuncha yuqoriroq. Salohiyat nuqtai nazardan ham Andijon shahri, albatta, oldinda - uning bu boradagi hissasi 39,8 %. Shuningdek, Shahrixon tumanida viloyat pullik xizmatining 5,6, Andijon tumanida - 5,5 va Baliqchida - 5,3 foizi amalga oshirilgan.

Chakana savdoda: Andijon shahri 34,0 %, Asaka 4,5 %, Qo`rg`ontepa tumani 7,1 %, Shahrixon 16,4 % va h.k; eng past ko`rsatkichlar Ulug`nor tumanida 0,9 %. Jon boshiga olganda viloyat markazida bir yilda chakana savdo hajmi 1151,0 ming so`m, Asaka shahrida 999 ming so`m (o`rtacha 498 ming so`m).

Aholining yashash sharoiti ko'p jihatdan ijtimoiy infratuzilma shaxobchalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Bu borada ayniqsa aholining toza ichimlik suvi, gaz va muntazam elektr energiya bilan ta'minlanishi katta mazmun kasb etadi. Andijon viloyatida 2011 yil yakunlari bo'yicha, aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi 88,8 foiz bo'lgan. Shahar joylarda bu vaziyat, albatta, yaxshi, qishloq tumanlari miqyosida esa ayrim muammolar bo'lishi mumkin. Chunonchi, Ulug'nor tumanining 73,0 foiz aholisi bunday imkoniyatlarga ega. Marhamat, Paxtaobod tumanlarida ham mazkur ko'rsatkich yuqoriroq bo'lishini talab qiladi (78,4 va 79,3 %).

Tabiiy gaz bilan ta'minlanish ichimlik suviga nisbatan pastroq. Xonobod shahrida yirik gazxona barpo etilishiga qaramay viloyatda gaz bilan ta'minlanganlik o'rtacha 73,2 %. Jumladan, Paxtaobod tumanida 56,9 %, Baliqchi tumanida 60,0 %, Xo'jaobodda 61,3 %. Vaziyat ayniqsa Jalaquduq va Izboskan qishloq tumanlarida nochorroq. Bu hududlarda tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik, mos holda, 44,1 va 49,5 foizni tashkil qiladi, xolos. Binobarin, 2009 yilda qabul qilingan "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini amalga oshirish jarayonida aynan shu tumanlarga ustuvorroq ahamiyat berish zarur bo'ladi.

Viloyatda er tanqisligi bois, uy-joy bilan ta'minlanganlik respublikaning boshqa mintaqalariga qaraganda pastroq - o'rtacha bir kishiga 10,0 kv.m; nisbatan yuqoriroq ko'rsatkich Marhamat (13,1 m²) va Xo'jaobod (12,0 m²), Oltinko'l (11,0 m²) va Baliqchi tumanlarida (10,6 m²) kuzatiladi. Buloqboshida esa atigi 7,8 m² ga teng, xolos. Bunday ijtimoiy muammo, eng avvalo, aholi zichligining yuqoriligi va er resurslarining kamligi tufayli yuzaga kelgan.

Har qanday mamlakat yoki mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosini investitsiya, kapital qo'yilmalar belgilab beradi. Aytish joizki, Andijon viloyatida kapital qo'yilmalar va qurilish ishlari yaxshi olib borilmoqda. Masalan, 2011 yilda jami investitsiyalar hajmi 445,2 mlrd so'mni tashkil qilgan. Uning 1/5 qismidan ko'prog'i Andijon shahriga, 3,0 foizi Asaka shahriga, 5,8 foizi Xonobodga, 4,5 foizi Shahrixon tumaniga yo'naltirilgan. Ayni vaqtda Bo'z va Ulug'nor qishloq tumanlarining investitsiya muhiti uncha qulay bo'lmagan.

2011 yilda ro'yxatga olingan xorijiy sarmoyalar yordamida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 91 ta bo'lgan. Ularning 28 tasi Andijon shahrida, 13 tasi Andijon tumanida, 11 tasi Shahrixonda, 8 tasi Izboskanda va h.k. Shu bilan birga, Bo'z va Ulug'nor tumanlarida birorta qo'shma korxonalar yo'q, Buloqboshi, Paxtaobod, Xo'jaobodda atigi bittadan, xolos. Ma'lumki, qo'shma korxonalar mamlakat va mintaqalar eksportida faol ishtirok etishlari talab qilinadi. Shu yilda mazkur korxonalar tomonidan 271,9 mln. AQSh dollari miqdorida eksport ishlari bajarilgan bo'lib, uning 86,4 foizi birgina Asaka shahriga (avtomobil zavodiga) to'g'ri keladi. Eksport salohiyati bo'yicha keyingi o'rinda Xonobod shahri (elektr

texnika mahsulotlari, kabel) turadi. Shuningdek, Andijon, Jalaquduq, Izboskan, Qo'rg'ontepa tumanlari ham mintaqa eksportida ishtirok etishadi.

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, 2011 yilda viloyatda jami 37406,7 ming tonna yuk, 283357,4 ming kishi yo'lovchi tashilgan. Yuk va yo'lovchi tashish aylanmasi oldingi yilga qaraganda 1,2 marta ortgan. Tashilgan yukning 92,6 foizini, yo'lovchilarning deyarli 100 foizini avtomobil transporti amalga oshirgan. Yukning ham, yo'lovchining ham aksariyat qismini xususiy avtomobil egalari bajarishgan. Yuk tashishda, eng avvalo, Andijon shahri, tumanlar orasida esa Andijon hamda Paxtaobod ajralib turadi. Yo'lovchilar tashishda viloyat markazidan tashqari Andijon, Qo'rg'ontepa va Asaka tumanlari oldinda. Tashqi savdo aylanmasi 2008 yilda 2060505 ming, 2011 yilda 1521839 ming AQSh dollariga teng bo'lgan. Shundan eksport 821190 va 337794, import 1239405 va 1184044 ming dollarni tashkil qilgan. Eksport tarkibida mashina va uskunarlar - 88,4 %, importda - 77,0 foiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2008 yilda mashina va uskunarlar importi qiymati eksport hajmidan ko'p bo'lgan. Demak, bu borada qo'shimcha zahiralar yaratilgan. Importda qora va rangli metallar 8,9 %, kimyo sanoati mahsulotlari 8,8 foizdan iborat. Ushbu import tovarlari ham asosan avtomobilsozlik maqsadlarida amalga oshirilgan.

Andijon viloyati iqtisodiyotining hududiy tarkibi 2011 yil, jamiga nisbatan foizda)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	XIM	qishloq xo'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat	Eksport	Import
Viloyat bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Andijon sh.	16,1	4,0	2,9	21,0	24,0	34,0	39,8	1,5	13,0
Asaka sh.	65,8	89,6	1,2	30,0	1,7	4,5	3,8	70,1	77,6
Xonobod sh.	3,9	0,09	0,89	5,8	4,4	0,8	1,1	6,2	3,3
tumanlar:									
Andijon	2,4	0,5	7,7	3,8	7,5	3,2	5,5	0,9	0,4
Asaka	1,6	0,8	7,4	2,6	5,8	3,4	4,1	-	0,5
Baliqchi	1,2	0,3	8,0	2,7	8,9	3,7	5,3	1,6	0,1
Buloqboshi	0,2	0,2	4,6	2,6	4,0	4,0	2,9	-	0,1
Bo'z	0,7	0,06	4,8	1,4	3,5	0,8	1,1	-	-
Jalaquduq	1,5	0,2	8,8	3,9	4,5	3,2	4,8	1,6	0,2
Izboskan	1,2	0,3	7,4	3,1	3,7	3,2	4,5	0,7	0,5
Marhamat	0,7	0,3	7,1	1,8	5,9	3,3	3,9	0,1	0,2
Oltinko'l	0,7	0,2	6,3	2,9	5,6	3,2	3,9	0,3	0,2
Paxtaobod	0,3	0,1	8,0	3,7	3,9	4,7	4,6	0,3	0,1
Ulug'nor	0,02	0,03	3,9	1,6	1,7	0,7	0,9	-	-
Xo'jaobod	0,9	1,2	4,5	2,0	3,5	3,7	3,4	0,4	0,3
Shahrixon	1,6	0,9	4,0	4,5	6,5	16,4	5,6	1,5	0,4
Qo'rg'on tepa	1,2	1,0	8,2	3,0	4,6	7,1	4,7	0,9	0,1

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Jami eksportning 57,8 foizi "Uzoq xorij" va Boltiqbo'yi davlatlariga to'g'ri keladi (2010 y). Viloyat ichida eksportning 70,1, importning 77,6 foizi Asaka shahri zimmasiga tushadi. Qolgan hududlardan bu xususda Xonobod shahri, shuningdek, Baliqchi, Shahrixon, Jalaquduq tumanlarini qayd etish mumkin.

Umuman, Andijon viloyatini mikroiqtisodiy rayonlarga ajratadigan bo'lsak, u holda bu erda uch rayonni ko'rsatish mumkin: Markaziy (Andijon va Asaka shaharlari, Andijon, Asaka, Shahrixon, Paxtaobod, Izboskan tumanlari); Janubi-sharqiy (Marhamat, Jalaquduq, Qo'rg'on tepa, Xo'jaobod, Buloqboshi tumanlari) va g'arbiy rayon (Baliqchi, Bo'z va

Ulug`nor). Shubhasiz, ular orasida Markaziy rayonning iqtisodiy qudrati katta. Bu borada ayniqsa Andijon-Asaka-Shahrixon «uchburchagi» muhim mavqega ega. Andijon aglomeratsiyasi va sanoat tuguni viloyat geoiqtisodiy makonining o`zagini tashkil etadi. Shu bilan birga, adir orqasidagi Janubi-sharqiy rayon ham ancha rivojlangan, ammo uchinchi, ya'ni keyingi yillarda o`zlashtirilgan g`arbiy rayonning iqtisodiy va demografik salohiyati hozircha yuqori emas.

4- jadval

Andijon viloyati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari (2011 yil, aholi jon boshiga)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo`jalik mahsuloti	XIM	Kapital qo`yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat
Viloyat bo`yicha	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000
Andijon sh.	1,088	0,195	0,269	1,411	1,617	2,289	2,684
Asaka sh.	2,832	0,535	3,857	12,929	0,746	1,960	1,650
Xonobod sh.	2,571	0,504	0,059	3,818	2,911	0,507	0,725
tumanlar:							
Andijon	0,299	0,946	0,066	0,465	0,923	0,392	0,667
Asaka	0,203	0,935	0,103	0,333	0,736	0,436	0,515
Baliqchi	0,190	1,286	0,046	0,439	1,445	0,602	0,846
Buloqboshi	0,052	1,029	0,044	0,581	0,889	0,879	0,639
Bo`z	0,335	2,144	0,027	0,623	1,590	0,353	0,498
Jalaquduq	0,244	1,586	0,034	0,657	0,754	0,536	0,792
Izboskan	0,142	0,968	0,048	0,406	0,485	0,414	0,587
Marhamat	0,124	1,304	0,059	0,332	1,072	0,606	0,714
Oltinko`l	0,118	1,136	0,041	0,526	1,010	0,574	0,698
Paxtaobod	0,047	1,315	0,002	0,604	0,651	0,773	0,763
Ulug`nor	0,010	1,983	0,016	0,822	0,881	0,361	0,486
Xo`jaobod	0,252	1,254	0,338	0,554	0,974	1,038	0,964
Shahrixon	0,168	0,894	0,095	0,485	0,697	1,749	0,594
Qo`rg`ontepa	0,186	1,228	0,154	0,434	0,693	1,048	0,702

Jadval O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lu-motlari asosida hisoblab chiqilgan

Bevosita qishloq tumanlari darajasida ko`riladigan bo`lsa, qishloq joylar sanoati bu joylarda sust rivojlangan. Bu boradagi indikatorlar ayniqsa Paxtaobod, Buloqboshi tumanlarida past. qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi faqat Andijon, Asaka, Izboskan va shaharlarda 1,000 dan past, eng yuqori ko`rsatkich Bo`z tumanida – 2,144. Xuddi shunday hududiy tafovutlar boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham ko`zga tashlanadi. Masalan, qurilish ishlarida, 2011 yil yakunlariga ko`ra, shaharlarni hisobga olmaganda, indikator Baliqchi, Bo`z, Marhamat va Oltinko`l tumanlarida nisbatan kattaroq. Chakana savdoda esa Xo`jaobod,

Shahrixon va Qo'rg'ontepada vaziyat yaxshiroq, pullik xizmat ko'rsatish asosan shahar joylarda; Andijon shahri (2,684) va Asaka (1,650)da amalga oshiriladi.

2011 yil ma'lumotlari bo'yicha Andijon viloyatida Buloqboshi, Marhamat, Paxtaobod va Ulug'nor qishloq tumanlari davlat dotatsiyasida. Chindan ham ushbu ishda olib borilgan tahlillar ham, umuman olganda, mazkur tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ma'lum muammolar borligini isbotlab beradi.

5-jadval

Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy tuzilishi (2012 yil holati bo'yicha)

№	Ma'muriy-hududiy birliklar nomi	Shaharlar	Shaharchalar	Qishloq fuqarolar yig'inlari	Qishloq aholi manzilgohlari
	<i>Shaharlar</i>				
1	Andijon	1			
2	Xonobod	1	1	1	2
	<i>Tumanlar</i>				
1	Andijon		18	7	18
2	Asaka	1	4	8	49
3	Baliqchi		3	9	43
4	Buloqboshi		4	5	18
5	Bo'z		3	3	37
6	Jalaquduq	1	7	8	47
7	Izboskan	1	4	9	50
8	Marhamat	1	10	5	14
9	Oltinko'l		11	8	26
10	Paxtaobod	1	4	5	31
11	Ulug'nor		1	4	25
12	Xo'jaobod	1	6	4	17
13	Shahrixon	1	3	12	49
14	Qo'rg'ontepa	2	1	5	34
	Viloyat bo'yicha	11	80	93	460

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumki, qishloq aholi manzilgohlari aholi soniga va bajaradigan funksiyalariga ko'ra turli guruhlariga ajratiladi. Aksariyat hollarda qishloq aholi manzilgohlari aholi soniga ko'ra 100 kishigacha; 100-500; 500-1000; 1000-3000; 3000-5000; 5000 va undan yuqori bo'lgan guruhlariga bo'linadi. Aholi soni 3000-5000 kishigacha, va 5000 va undan ko'p bo'lgan katta va yirik qishloqlar aholi zich yashaydigan hududlarda, voha va vodiylarda, jumladan Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida tarkib topgan. Ayni vaqtda mazkur

viloyatlarda katta va yirik qishloqlarning ulushi ulardagi jami qishloq aholi manzilgohlarining 1/5 qismini tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday qishloqlar asosan qadimdan sug‘orma dehqonchilik qilinadigan hududlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, bu mintaqalarda qishloqlar orasidagi masofa yaqin yoki ular zich joylashgan. Masalan, Andijon viloyati qishloq aholi manzilgohlari orasidagi o‘rtacha masofa 2 km.ga teng; bu joylarda prof. A.Soliev iborasi bo‘yicha qishloqlarning “aholiyligi” o‘rtacha 1800-2500 kishidan iborat.

2012 yil ma‘lumotlarini o‘zida aks ettirgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qishloq aholi manzilgohlarining tumanlar bo‘yicha bunday taqsimlanishi, eng avvalo, hududlarning tabiiy-geografik, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ekologik shart-sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bunda ayniqsa, joyning tabiiy sharoiti, sug‘orish manbalariga, yirik shaharlarga yaqin joylashganligi katta ta‘sir ko‘rsatgan. Aytish joizki, yangi o‘zlashtirilgan va tog‘oldi hududlarda joylashgan tumanlarda aholi soni 500 kishigacha bo‘lgan kichik qishloqlar ko‘pchilikni tashkil etgan (Andijon, Bo‘z tumanlari). Mazkur tumanlarda bunday qishloqlar viloyat jami kichik qishloq aholi manzilgohlarining mos ravishda 23 va 25 foizini tashkil etgan. Aksincha, katta va yirik qishloqlar asosan aholi zich yashaydigan hududlarda ko‘proq vujudga kelgan. Ko‘rinib turibdiki, viloyat hududida qishloq aholi manzilgohlarining tarixiy shakllanishiga asosan suv manbalari, irrigatsiya-sug‘orish tizimlari o‘zining katta ta‘sirini ko‘rsatgan.

Jumladan, Andijon viloyati qishloq aholi manzilgohlarini aholisi soniga ko‘ra guruhleri bo‘yicha tahlil qilish natijasida ularning katta-kichikligi, joylashuvidagi o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi.

Qishloq aholi manzilgohlarining aholisi 1000 kishigacha bo‘lgan kichik qishloqlar 125 taga teng bo‘lib, ular jami qishloq aholi manzilgohlarining 21.5 foizini tashkil etgan. Bunday qishloqlar tumanlar bo‘yicha turlicha taqsimlangan. Jumladan, Andijon (26 ta), Bo‘z (22 ta), Jalaquduq (15 ta) tumanlari aholisi 1000 kishigacha bo‘lgan qishloqlar soni eng ko‘p bulgan guruhga kiritilgan. Mazkur tumanlar kichik qishloqlar sonining ko‘pligi bilan alohida ajralib turadi.

Ikkinchi guruhga esa qishloqlar soni 10 dan 15 tagacha bo‘lgan Shahrixon (10 ta), Ulug‘nor (10 ta), Qo‘rg‘ontepa (11 ta) tumanlari kirgan. Uchinchi guruhga tegishli tumanlar aholi soni 1000 kishigacha bo‘lgan qishloqlar sonining kamligi bo‘yicha alohida ajralib turadi. Ular jumlasiga Asaka, Baliqchi, Oltinko‘l, Izboskan, Xo‘jaobod tumanlari kiritilgan. Bunday guruhlarining vujudga kelishiga eng avvalo, ularning tabiiy-geografik shart-sharoitlari katta ta‘sir ko‘rsatgan.

2012 yilda Andijon viloyatida aholisi 1000-3000 kishigacha bo‘lgan o‘rta kattalikdagi qishloqlar 291 tani tashkil etgan. Ular viloyat jami qishloq aholi manzilgohlarining 50 foiziga

teng bo'lgan. Bunday qishloqlarning mutloq soni bo'yicha Baliqchi (58 ta), Oltinko'l (41ta), Jalaquduq (27 ta), Paxtaobod (25 ta), Shahrixon (23 ta) tumanlari alohida ajralib tursa, Buloqboshi (7 ta), Xo'jaobod (10 ta), Marxamat (5 ta) tumanlari o'rta qishloqlarning kamligi bilan xarakterlangan. Qolgan tumanlar o'rta guruhga kirgan.

2012 yilda aholisi 3000 dan 5000 kishigacha bo'lgan katta qishloq aholi manzilgohlari O'zbekistonda jami 890 ni tashkil qilgan bo'lsa, Andijon viloyatida ularning soni 106 ta bo'lgan. Ular jami qishloqlarning 18 foiziga to'g'ri kelgan. Ularning asosiy qismi Asaka (28 foiz) va Shahrixon (13 foiz) tumanlarida joylashgan. Respublika miqyosida esa Namangan, Farg'ona viloyatlaridagi unumdor hamda sug'orish manbalariga qulay hududlarda katta qishloqlar shakllangan (Namangan-107 ta va Farg'ona-107 ta).

Aholisi 5000 dan ortiq bo'lgan qishloqlar guruhi aholi sonining o'ta kattaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston, xususan, Andijon viloyati sharoitida aksariyat qishloqlar va ularning aholisi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lsa, ular orasida aholisi 5000 kishi va undan ortiq bo'lgan qishloqlar esa muayyan ishlab chiqarish salohiyati bilan ham ajralib turadi.

2012 yilda O'zbekistonda aholisi 5000 kishidan ortiq bo'lgan yirik qishloq aholi manzilgohlarining soni 301 tani tashkil qilgan. Bu jihatdan Andijon viloyati alohida ko'zga tashlanadi (59 ta). Yirik qishloqlar viloyat jami qishloq aholi manzilgohlarining 10 foizdan ortiq qismini tashkil etgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yirik qishloqlarning deyarli yarmi Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari hududida joylashgan. Ta'kidlash joizki, Andijon viloyatining tabiiy-geografik sharoiti, relief xususiyatlari, daryo va soylarning mavjudligi, aholining ko'p sonli va zich joylashganligi natijasida yirik qishloqli aholi joylashuvi tizimlari vujudga kelgan. Bu tizimda esa yirik qishloqlar alohida halqani hosil qiladi. Viloyatdagi yirik qishloqlar, odatda, daryo va soy bo'ylaridagi unumdor yerlarda, transport kommunikatsiyalariga qulay yerlarda, soylarning tugash qismida vujudga kelgan.

Qishloq aholi manzilgohlarining katta-kichikligi bo'yicha bilan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunonchi, O'zbekistonda har bir qishloq aholi manzilgohining o'rtacha aholisi 2008 yili 1353 kishini tashkil qilgan bo'lsa, Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 2505 kishiga to'g'ri kelgan (Namangan-2496 kishi).

Tahlillardan ko'rish mumkinki, katta va yirik qishloqlar asosan qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda shakllangan. Shu bilan birga, qishloqlarning zich joylashganligi, o'z navbatida, ular orasidagi masofani kichik bo'lishiga olib kelgan. Masalan, Andijon viloyatida qishloqlar orasidagi o'rtacha masofa 2 km ni tashkil etsa, bu miqdor Farg'ona, Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida 3,5-4 km.ga to'g'ri keladi.

Andijon viloyatida mavjud jami qishloq aholi manzilgohlarining 50 foizini o'rta kattalikdagi, 10,3 foizini esa yirik qishloqlar tashkil etadi. Viloyatning qulay tabiiy-iqlim sharoiti aholining mana shunday joylashuv tizimlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Baliqchi, Oltinko'l, Paxtaobod, Jalaquduq tumanlari aholisining aksariyat qismi o'rta kattalikdagi qishloqlarda istiqomat qilsa, Asaka, Izboskan, Shahrixon, Marhamat tumanlarida aholi asosan katta va yirik qishloqlarda yashaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish joizki, qishloq aholi manzilgohlarining vujudga kelishi asosan hududlarning tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq: kichik qishloqlar cho'l, dasht, tog' mintaqalarida tarkib topsa, odatda, yirik qishloqlar sug'orma dehqonchilik rayonlarida, yirik shaharlar atrofida, muhim transport yo'llari yaqinida shakllanadi. Shunga mos ravishda qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari, xususiyatlari namoyon bo'ladi. Demak, ularning kelajak istiqbollari belgilashda ana shu jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Zero, qishloq aholi manzilgohlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalari mamlakatimiz hamda viloyatlar ichki strukturaviy siyosatida dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida jami bo'lib 965 ta qishloq aholi manzilgohi shahar posyolkalari toifasiga kiritildi. Natijada O'zbekiston va viloyatlar qishloq aholi manzilgohlari tarkibiy va hududiy tuzilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Andijon viloyatida jami 78 ta qishloq aholi manzilgohiga shaharcha maqomi berildi. Bu mamlakatda tashkil etilgan jami shaharchalarning 8 foizini tashkil etadi.

Andijon viloyatida shaharchalar toifasiga kiritilgan qishloq aholi manzilgohlari aholi soniga ko'ra yirik qishloqlar guruhiga kirgan hamda ularning joylashuvi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunonchi, ushbu shaharchalar asosan shaharlar atrofida, shu bilan birga sug'orma dehqonchilik madaniyati yuksak rivojlangan hududlarda vujudga keldi. O'z navbatida, ularda shaharlarga xos bo'lgan turmush tarzi, ishlab chiqarish tarmoqlari va infratuzilma ob'ektlari mavjuddir. Qishloq joylarda sanoat va xizmat ko'rsatish soxalarining rivojlanishi, aholi bandlik tarkibining o'zgarishi, transport infratuzilmasining taraqqiy etishi viloyat qishloq aholi manzilgohlarining hududiy tarkibining takomillashuvining muhim omili hisoblanadi.

Aytish joizki, shahar posyolkalari toifasiga kiritilmagan qishloq punktlari qishloq aholi manzilgohlari sanalishi mumkin, biroq ular o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bunday farqlar aholining mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq.



Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, shaharcha toifasiga kiritilgan qishloq aholi manzilgohlari sonining ko'pligi bo'yicha Andijon (18 ta), Oltinko'l (11 ta), Marhamat tumanlarini ta'kidlash joiz. Mazkur tumanlarda viloyatda yangi tashkil etilgan shaharchalarning deyarli yarmi joylashgan.

Andijon viloyati respublikamizning maydoni eng kichik viloyatlaridan biri sanaladi. U mamlakatimizda bu borada faqat Sirdaryo viloyatidan 0,02 ming kv. km ga katta, xolos. Andijon viloyatining hududi 4,30 ming kv. km yoki respublika umumiy maydonining bor-yo'g'i 0,96 foizini tashkil qiladi. Bu yerda, 1 yanvar 2009 yil ma'lumotiga ko'ra, 2499,9 ming, shu jumladan, 1161,0 qishloq aholisi yashaydi. Ushbu raqamlar O'zbekiston Respublikasiga nisbatan, mos holda, 9,1 va 8,7 foizlarga teng. Demak, xulosa chiqarish mumkinki, viloyat mamlakat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yaqin 95 marta yuqori aholi zichligiga ega. Biroq qishloq aholisining ulushi birmuncha past, bu esa urbanizatsiya umumiy darajasining birmuncha yuqoriligidan darak beradi (53,5 %, O'zR-51,7%).

Viloyat qishloq joylarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning negizini aholi turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy, ahloqiy va jismoniy jihatdan yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada ayniqsa qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani

shakllantirish, ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, aholining salomatligiga e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ma'lumki, ijtimoiy infratuzilma kishilar faoliyatining umumiy shart-sharoitlarini ta'minlab beradigan majmuadan iborat. Ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma bir-biridan farq qiladi. Ammo, har ikkalasida ham aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlari ichida xususan, kommunal-maishiy xizmat kabi ijtimoiy infratuzilma elementlarini alohida ta'kidlash o'rinli. Zero, aynan yuqorida aytib o'tilgan sohalar mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush sharoiti va tarzini belgilab beruvchi asosiy mezonlar hisoblanadi¹. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy infratuzilmaning qishloq aholisi turmush sharoitidagi tutgan o'rnini tadqiq qilish ayniqsa hozirgi iqtisodiy sharoitda juda zarurdir. Andijon viloyati qishloq aholi manzilgohlarida ijtimoiy sohalarining rivojlanganlik darajasini bir xil deb bo'lmaydi. Chunki, qishloq aholi manzilgohlari geografik o'rni, ular orasidagi masofaning uzoq-yaqinligi, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik rivojlanishi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Andijon viloyati qishloq tuman markazlari aholisining ijtimoiy-maishiy rivojlanishining muhim masalalaridan biri aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan kommunal xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

O'rganishlardan ma'lumki, aholini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi viloyatda o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega. Viloyatning ayrim qishloqlari geografik joylashgan o'rni yangi o'zlashtirilgan cho'l va tog' oldi hududlariga to'g'ri keladi. Bunday relief sharoit mazkur suv tarmoqlarini joylashtirishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. O'z navbatida, ko'pgina qishloq aholi manzilgohlarida yashovchi aholi asosan tog'lardan oqib keluvchi soy suvlaridan, tog' yonbag'irlaridagi buloq suvlaridan iste'mol qilishadi.

Ichimlik suvi bilan bir vaqtda tabiiy gaz bilan ta'minlash ham qishloq aholisining turmush sharoitini belgilovchi mezonlardan hisoblanadi. Bugungi kunda tabiiy gaz bilan aholini ta'minlash darajasi respublikada 65 foizga yetgan, va bu ko'rsatkich tez sur'atlarda o'sib bormoqda.

Andijon viloyati miqyosida tabiiy gaz bilan ta'minlanishi darajasi qishloq joylarga nisbatan shaharlarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, qishloq aholi manzilgohlari orasida qishloq fuqarolar yig'ini markazlari, shaharga yaqin qishloqlarda bu vaziyat birmuncha ijobiy mazmun kasb etadi.

Qishloq joylar ijtimoiy taraqqiyotda ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan bir qatorda elektr energiya bilan ta'minlanish alohida o'rin egallaydi. Boshqa ijtimoiy infratuzilma elementlaridan

farqli ravishda elektr energiyasi bilan ta'minlanish eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Respublika viloyatlarida bu ko'rsatkich 93-100 foizni tashkil qilgan holda, u qishloq joylarda o'rtacha 96,6 foizga teng.

Andijon viloyatida aholiga xizmat qiluvchi infratuzilma, ya'ni ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat idoralari, o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarni alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi kunda aholini toza ichimlik suvi hamda tabiiy gaz bilan ta'minlash, qishloqlarni elektrlashtirish, kanalizatsiya tarmoqlarini o'tkazish kabi masalalarga katta e'tibor berilmoqda. Chunonchi, viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash 90.7 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanish esa 71.8 foizni tashkil etadi. Har bir aholiga o'rtacha 9,8 m.kv. uy-joy to'g'ri keladi.


Viloyatda aholini uy-joy bilan ta'minlash muammosi mavjud, lekin aholini tabiiy gaz hamda ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasini ijobiy baholash mumkin.

Aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari bo'yicha Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Oltinko'l, SHaxrixon, Xo'jaobod tumanlari yuqoriligi bilan ajralib tursa, eng past ko'rsatkich Ulug'nor va Marhamat tumanida kuzatiladi (73.0 va 78.4). Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Andijon tumani aholisining 81.6 foizi, Bo'z tumanining 80.4 foiz aholisi tabiiy gaz bilan ta'minlangan. Ayni vaqtda, Jalaquduq (44.0 foiz), Izboskan (49,0 foiz) tumanlarida aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash dolzarb masala sanaladi.

Andijon viloyat aholisini markazlashtirilgan suv bilan ta'minlash 82,4 foizni tashkil qiladi, ammo qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi shahar aholisiga nisbatan birmuncha past. Bunga sabab qishloq joylarda suv o'tkazgich quvurlarining tortilmaganligi yoki tortilganlari ham eskirib, chirib, ishga yaroqsiz holga kelib qolganligi tufayli suv bosimiga bardosh beraolmasligidir. Ayni vaqtda ushbu kommunal xizmatdan foydalanish darajasi barcha tumanlarda bir xil ta'minlangan, deb bo'lmaydi. Masalan, cho'l zonasidagi aholi punktlarida toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish ancha past. Marhamat, Paxtaobod, Izboskan, Oltinko'l, Baliqchi tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi o'rtachadan yuqori, lekin shunga qaramasdan tumanlardagi katta qishloqlarda aholi o'zlarining mablag'lari evaziga artizan quduqlarni qazishib, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini, biroz bo'lsada, yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 50 foizgacha bo'lgan guruxga Bo'z va Ulug'nor tumanlari, 70-85 foizgacha ta'minlangan tumanlarga Marhamat, Paxtaobod, Izboskan, Oltinko'l, Baliqchi kiradi, yaxshi va yaxshidan yuqori darajasiga Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod,

Andijon, Asaka tumanlari kiradi. Toza ichimlik suvi Xonobod shahridan Andijon shaxriga yo‘nalgan bo‘lib, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jaobod, Andijon, Asaka tumanlarining bu tarmoqqa bog‘langanligi aholiga ancha qulayliklar yaratadi. Ular yuqori darajada markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlangan. Andijon suv omboridan keladigan suv, suv tindirgichlar orqali o‘tib undan keyin oqova suv quvurlari yordamida aholi punktlariga yetkazib beriladi. Tuman markazlaridan tashqari hududlarda yashovchi aholi asosan kanallardan, soylardan, buloq va quduqlardan foydalanishadi. Tuman qishloqlarining markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashning imkoniyatini qiyinligi ularning geografik joylashgan o‘rniga, tuman markazlari bilan oradagi masofalarning kattaligiga, asosiy ichimlik suvi keladigan yo‘nalishga nisbatan ularning teskariligidir. Bugungi kunda viloyatda axolini ichimlik suvi bilan ta‘minlashda 100 dan ortiq suv manбайдan foydalanilmoqda. Ularning bir kecha-kunduzda suv berish imkoniyati 82,4 foizni tashkil qilib, sutkasiga aholi jon boshiga 150 litrga teng.

2-rasm



Ma'lumki, 2005 yil 25 mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan Farg'ona vodiysi viloyatlarining qo'shni davlatlar bilan chegaradosh tumanlarida aholining kommunal va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash, aholi bandligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan dastur ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq Andijon viloyati qishloq joylarida 216,3 ming kv. m, uy-joy, 420 qatnovga ega bo'lgan 8 ta qishloq vrachlik punkti qurilib, foydalanishga topshirildi. Bundan


tashqari, 22 ta qishloq vrachlik punktlarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Aholiga savdo va pullik xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Marhamat, Paxtaobod, Buloqboshi tumanlarida 8 ta savdo shahobchalari bunyod etildi. Hozirgi kunga kelib, viloyatda 10500 ga yaqin savdo, 1135 ta umumiy ovqatlanish, 8764 ta maishiy xizmat shahobchalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shunday qilib, Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning o'ziga xos imkoniyatlari mavjud. Masalan, viloyat hududining kichikligi, shahar va qishloq joylar orasidagi masofaning yaqinligi, qishloqlar to'ri hamda tizimining yaxshi shakllanganligini alohida ta'kidlash mumkin. Shuningdek, transport infrastrukturasi taraqqiy etganligi bilan bir qatorda kommunikatsiya tizimining yaxshi rivojlanganligi qishloq joylarda aholiga xizmat qiluvchi infrastrukturani yanada yuksaltirishga yordam beradi.

Aholining madaniy-maishiy xizmat turlariga bo'lgan talabi va ehtiyoji ham zamonga mos holda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda klublar, stadionlar, kutubxonalar, savdo shahobchalari, hammom, sartoshxona va boshqalar barcha qishloq aholi manzilgohlarida mavjud. Biroq, ularning nisbiy ko'rsatkichlari, ya'ni aholi sonining umumiy ta'minlanish darajasi tumanlarda bir xil emas.

Shunday qilib, Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Ularni ijobiy hal etish bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning negizini tashkil etishini alohida ta'kidlash joiz.


Suv quvurlari orqali ichimlik suvi bilan ta'minlash viloyatning barcha hududlarida ham qoniqarli deb bo'lmaydi. Aholi o'rtasida tozalanmagan oqova suvlardan foydalanish kishilar salomatligiga ta'sir qilib, turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, (bezgak, sariq singari yuqumli kasalliklar) bunday holatni, ayniqsa dalalarda qishloq xo'jaligi ekinlariga, tokzorlar va bog'larga kimyoviy ishlov berayotganda ko'p kuzatish mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng hukumatning aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash borasida olib borayotgan ishlari tufayli viloyatning o'nlab qishloqlariga suv quvurlari orqali toza ichimlik suvlari yetkazilib berilmoqda. Xususan, bolalar bog'chalari, maktablar, shifoxonalar, umumiy ovqatlanish shahobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari ta'minoti birinchi galdagi vazifalarga kiradi.



Viloyatda yuzlab kilometr masofalarga suv quvurlari yotqizilib, markazlashgan toza ichimlik suvi tizimini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda-ki bu ham aholini ijtimoiy muxofaza qilishning bir yo'nalishi hisoblanadi. Axolini tabiiy gaz bilan ta'minlash ham muxim masaladir. Ayni paytda viloyat aholisini tabiiy gazdan foydalanish darajasi 62 foizga teng. Tabiiy gazga bo'lgan talab shahar joylarda qishloqlarga nisbatan yaxshiroq qondirilyapti. Viloyat hududi bo'ylab tarqalgan gaz tarmoqlarining umumiy uzunligi 6356,9 km,ga teng bo'lib, shundan 5611,2 km gaz quvurlari qishloq aholi punktlariga tortilgan. Axolini tabiiy gaz bilan ta'minlash Asaka tumanida 80,3%, Shahrixonda 77% va Xo'jaobod tumanida 71,3 foizga teng. Biroq ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich pastroq. Mdsalan, Paxtaobodda U 55,0%, Izboskanda 49,4% va Jalolquduqda 43,5 foizni tashkil etadi.

1997-2000 yillarda Xo'jaobod tumanida yirik gaz ombori qurilib ishga tushirilish munosabati bilan aholini gazga bo'lgan ehtiyojini qondirish ancha yaxshilandi. Natijada, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepa, Jalaquduq tumanlari aholisining turmush sharoitida qator ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi.



Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish masalalari mazkur sohalarni o'rganish yoki tahlil etish bilan chegaralanib qolmaydi, aksincha, barcha aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan madaniy-maishiy, transport, savdo, aloqa kabilar rivojlantirish ham muxim o'rin egallaydi. Sababi-bu xizmat turlari ham aholining kundalik, hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda asosiy tarmoqlar sanaladi. Jumladan, viloyatda aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Barcha aholi manzilgohlariga elektr tarmoqlari tortilgan bo'lib, eng chekka qishloqlar ham elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatlariga egadirlar.

II.3. Andijon viloyati qishloq tuman markazlari istiqbolida rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Malumki, qishloq tuman markazlari birinchi navbatda shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Andijon viloyatida sanoat, transport, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi natijasida shaharlarning mavqei ham tobora ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib urbanizatsiya darajasi respublika ko'rsatkichidan yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Urbanistik siyosat ta'sirida Andijon viloyatida kichik va mayda shaharlar soni keskin ortib ketdi. Natijada esa urbanizatsiya ko'rsatkichi 29,2% dan 53,6 % ga yetdi. Ammo, mazkur ko'rsatkich tumanlar bo'yicha tafovutlarga ega. Masalan, Marhamat tumanida aholining 81,5 %i shaharlarda istiqomat qilsa, Ulug'nor tumanida u 10,2% ni tashkil yetadi, xolos.

Andijon viloyati tuman markazlari bajaradigan vazifasiga ko'ra unchalik xilma-xil emas. Jumladan, Andijon, Asaka shaharlari yirik sanoat, transport shaharlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ular ma'muriy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Xonobod, Shahrixon shaharlarining

ham hozirgi kunda sanoat va transport iqtisodiy salohiyati ortib bormoqda. Qolgan shaharlar tuman markazi vazifasini bajaradi. Biroq, Marhamat, Oxunboboev, Pahtaobod, Poytug‘ kabi shaharlarda zamonaviy ishlab chiqarish korhonalari soni tobora ko‘payib bormoqda.

Qishloq tuman markazlari-shaharlar aholi soniga ko‘ra klassifikatsiya qilinganda katta tafovutlarni ko‘rish mumkin. Xususan, shahar aholisining deyarli yarmi aholi soni 20 ming kishigacha bo‘lgan mayda va kichik shaharlarda istiqomat qiladi. Shahar aholisining 27%i esa birgina Andijon shahriga to‘g‘ri keladi. Aholi soni 50-100 ming kishigacha bo‘lgan o‘rta shaharlar 2 taga teng (Asaka, Shahrixon).

6-jadval

Andijon viloyati shahar manzilgohlarining tarkibi

Shahar manzilgohlari kategoriyasi	2012 yil			
	Shaharlar		Aholi soni	
	soni	%	Ming kishi	%
Jami shahar manzilgohlari	94	100.0	1338.9	100.0
Shu jumladan aholisi:				
10 minggaacha	60	63.8	321.7	24.0
10-20ming	23	24.5	321.9	24.1
20-50ming	8	8.5	201.5	15.0
50-100ming	2	2.1	123.3	9.2
100-250ming	-	-	-	-
250-500ming	1	1.1	370.5	27.7
500-1000ming	-	-	-	-
1000 ming va undan yuqori	-	-	-	-

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi

Shu bilan birga qayd etish joizki, qishloqlarga shaharcha maqomini berishda ba’zi bir kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Chunonchi, viloyatda demografik salohiyati katta bo‘lgan ayrim qishloqlar bu maqomga erisha olmagan. Masalan, hatto har birida 5000 dan ortiq aholi yashaydigan Ayshaxonum, Omonjo‘ra, Yolg‘izbog‘, Bo‘taqora, To‘raobod, Xo‘jaobod, Saroy, Ozod, Sho‘rqishloq, Do‘rmon, Niyozbotir, Tumor, Qorayantoq, Botirobod kabi qishloqlar ushbu ro‘yxatga kiritilmagan.

Demak, qishloqlarning shaharcha hosil qiluvchi omillari atroflicha baholanmagan va to'la hisobga olinmagan. Shu bois aytish mumkinki, yangi shaharchalar ro'yxati qayta ko'rib chiqilishi ehtimoldan holi emas. Qolaversa, birdaniga yuzdan ortiq qishloqlarni ba'zan sun'iy ravishda shaharcha toifasiga kiritish ham unchalik haqiqatga to'g'ri kelmasa kerak. Avval ta'kidlaganimizdek, aynan yoki faqat shu yo'l bilan qishloqlar muammosini ham, shaharlar tizimi rivojlanmagan umumiy urbanizatsiya darajasi eng past bo'lgan mintaqqa muammolarini ham bu tartibda uzil-kesil hal etish qiyin.

Qishloqlar aholini hududiy-ijtimoiy tashkil etishning eng qadimiy va asosiy shakllaridan biridir. Ularning bajaradigan funksiyasi shaharlarga qaraganda uncha boy emas; odatda, qishloqlar qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan va aralash funksiyali guruhlariga bo'linadi. Qishloqlarning eng ko'pchiligi bevosita qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tipi hisoblanadi.

Andijon viloyati qishloq tuman markazlari rivojlanishi tabiiy sharoitga ancha bog'langan; ularning shakllanishi va rivojlanishi yer usti tuzilishi, joyning agroiqlimiy resurslariga, xususan iqlim, suv (gidrografiya), tuproq va boshqa tabiiy geografik komponentlarga bog'liq bo'ladi. Bu sharoitlar xo'jalikining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvini, hududiy tashkil etilishini belgilab beradi.

Albatta, qishloq tuman markazlari taraqqiyoti va farovonligi, eng avvalo, ularning iqtisodiy negizi, ya'ni iqtisodiyot tizimidagi islohatlarga, fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyatiga, kichik biznes, kasanachilik, milliy hunarmandchilik kabi sohalarning rivojlanishiga asoslanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari qatorida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, ayniqsa, transport, aholiga turli xil xizmat ko'rsatish (savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va h.k.) va servis sohasining rivojlanib borishi, qishloq joylarga sanoatning olib kirilishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi, pirovard natijada, aholi bandligi va uning turmush farovonligini ko'tarishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, bunday imkoniyatlar turli xil iqlim-relef sharoitga va xo'jalik yo'nalishiga ega bo'lgan hududlarda bir xil emas. Chunonchi, aholi zich, aholi punktlari katta bo'lgan voha va vodiylarda yoki qishloqlar kichik va tarqoq, bir-biridan uzoq masofada o'rnatilgan cho'l va tog'li mintaqalarda "Qishloq" dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish o'ziga xos geografik xususiyatlarga ega.

Andijon viloyati qishloq joylarida eko- va agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham oz emas. Ulardan foydalanish, tegishli infratuzilma shahobchalarini yaratish qishloq tumanlari va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

"Qishloq" dasturini amalga tatbiq etish jarayonida 78 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Natijada, umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi birdaniga 29,2 foizdan 53,4

foizga ko'tarildi, ayrim viloyatlarda esa u tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada juda yuqorilashib ketdi (masalan, Namangan viloyatida 64,7 %). Vaholanki, bunday mintaqalarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati ularning urbanizatsiya ko'rsatkichiga mos kelmaydi va uni real aks ettirmaydi. Sababi, ko'pgina yangi shaharchalar hozirgi shaharsozlik me'yorlariga to'liq javob bermaydi. Aynan shuning uchun ham bunday qishloq-shaharlarni atroflicha tahlil va tadqiq qilib, ularning birinchi navbatda rivojlantirish lozim bo'lgan guruhlarini ajratish talab etiladi. Shu bilan birga, ayrim yangi shaharchalarning ular egallagan maqomga muvofiq yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan qayta ko'rilib chiqilishi ham ehtimoldan holi emas. Fikrimizcha, qishloq tuman markazlari muammolarini, ularning strategik rivojlanish yo'llarini alohida-alohida emas, balki birgalikda, uyg'unlikda hal etib borish zarur. Gap shundaki, yangi shaharchalar viloyatda an'anaviy bo'lgan kichik shaharlar muamosini yanada keskinlashtiradi. Ularning ko'pchiligini iqtisodiyot salohiyati past, infratuzilmasi zaif, aholi bandligi uchun ish o'rinlari oz.

Viloyatda shaharlar sonini ortishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi. Xususan,

- yangi tashkil etilgan "agrosaharlar" muammolariga jiddiy etibor qaratish lozim;
- qishloq tuman markazlari taraqqiyoti darajasidagi tafovutlarni mumkin qadar kamaytirish;
- qishloq tuman markazlarida sanoat, transport, servis, ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish;
- sanoat, transport rivojlangan shaharlarda (Andijon, Asaka) ekologik vaziyatni nazoratga olish;
- qishloq tuman markazlarida uy-joy qurulishi va loyihalarini shaharsozlik qoidalariga mos ravishda tashkil etish va hokazo.

Demak, qishloq tuman markazlari yurtimizning qadimiy tarixi va an'alaridan kelib chiqqan holda, ham ichkaridan (qishloq urbanizatsiyasi), ham katta shaharlar va shahar aglomeratsiyalari ta'sirida, aholi joylashuvining umumiy hududiy tizimi doirasida rivojlanib boradi. Shahar va qishloq bu o'ziga xos geojuftlik; shahar o'zining yuksak innovatsiya, infratuzilma, investitsiya hamda iqtisodiy qudratiga asoslangan holda qishloq joylarni va umuman mamlakatni boshqaradi. Har qanday yangilik aynan shu markazlardan diffuziya shaklida tarqaladi, qishloqlar esa shaharlarni qishloq xo'jalik mahsulotlari, ishchi kuchi, toza havo, suv va boshqa bebaho resurslar bilan ta'minlaydi, milliy urf-odatlarimizning saqlanuvchanligiga yordam beradi. Binobarin, shahar va qishloqlar aholi va xo'jalikni hududiy tashkil etishning yagona tizimi doirasida rivojlanib boradi va bu borada ular bir-birini taqozo etadi, to'ldiradi.

XULOSA

Qishloq tuman markazlarini iqtisodiy geografik tadqiq etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Vaholanki, bunday izlanishlar qishloq tuman markazlarining tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu bitiruv malakaviy ishida Andijon viloyati qishloq tuman markazlarining iqtisodiy rivojlanishi tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Qishloq tuman markazlari sanoat va transport shaharlariga qaraganda joylarning tabiiy sharoiti, xususan, yer-suv, agroiqlimiy resurslarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Bevosita urbanistik tarkibga kelsak, viloyatda 1 ta yirik Andijon shahrida 365 ming kishi aholi bor; Asakada 57, Shahrixonda 65 ming kishi yashaydi. Demak, respublikamizning ayrim mintaqalaridan farq qilib, bu yerda o'rta bo'g'in shaharlar mavjud.. Xonobod,, Oxunboboev, Poytug', Qorasuv, Qo'rg'ontepa va Paxtaobodning har birida 20-30 mingdan aholi istiqomat qiladi. Qolgan 85 shahar joylar kichik shahar manzilgohlarini tashkil qiladi.

Viloyat markazi-Andijon negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllanmokda. Uning "yo'ldoshlari" orasida, Asaka hamda Shahrixon, Marhamat, Poytug' kabilar ajralib turadi.

Viloyat shaharlari turli funksiyalarni bajaradi: Andijon ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, madaniyat va fan markazi, Asaka va Shahrixon-sanoat markazlari, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Oxunboboev, Paxtaobod, Poytug', Ulug'nor, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Oqoltin, Oltinko'l, Kuyganyor-agrosanoat shahar va shaharchalar, tuman ma'muriy markazlari, Qorasuv, Xonobod - transport va savdo markazlari. Kolgan shahar joylarning aksariyati agroshaharchalar hisoblanib, ularning ayrimlarida hozircha shahar hosil qiluvchi tarmoqlar sust rivojlangan.

Qishloq tuman markazlari aholisini turar-joy bilan ta'minlash jiddiy masala hisoblanadi. Shu sababli, qishloq joylarda yakka tartibdagi turar joy massivlari qurilishini jadallashtirish, aholining uy-joy sotib olishi uchun qanday tabaqalarga mansubligini hisobga olish muhimdir. Ushbu masala eng avvalo, Respublika Prezidentining "Andijon viloyati turarjoy massivlarining kommunal infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha 2011-2015 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bilan chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev O. Farg'ona vodiysi: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari.–Namangan, 2000. - 290 b.
2. Alekseyev A. I. Geografiya selskoy mestnosti.-M., 1989.194 str.
3. Alekseyev A.I. Mnogolikaya drevnya.-M.,1990, 266 str.
4. Asanov G. Aholi geografiyasi.-T.: O'qituvchi, 2003.-304 b.
5. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliev A. Istoriko-demograficheskie ocherki urbanizatsii Uzbekistana.-Tashkent: Universitet, 2002.-124 s.
6. Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr. 2002. – 224 b.
7. Zokirov S.S. Aholi zich joylashgan hududlarda shahar manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi (Andijon viloyati misolida): iqt. fan. nom. ilmiy dar. olish uchun dissertatsiya. – Toshkent, 1996. – 175 b.
8. Isayev A.A. Farg'ona vodiysi transporti rivojlanishining geografik jihatlari: geogr. fan. nom. ilmiy dar. olish uchun avtoreferat. –Toshkent, 2009. – 28 b.
9. Qodirov R. B. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida mehnat resurslaridan foydalanishning hududiy jihatlari (Andijon viloyati misolida): geogr. fan. nom. ilmiy dar. olish uchun avtoreferat.– Toshkent, 2003. -22 b.
10. Maksimov V. A. Ekonomiko-geograficheskoe izuchenie selskoy mestnosti. Ufa. 1985
11. Mamajonov M. Andijon viloyati aholisini ijtimoiy muhofaza qilishning geografik jihatlari. geogr. fan. nom. ilmiy dar. olish uchun avtoreferat. oshkent, 2004. -26 b.
12. Nazarov M., Tojiev Z. Ijtimoiy geografiya. –Toshkent, 2003. -92 b.
13. Sattorov A.U. Surxondaryo qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari. Geogr.fan.nom.diss.avto-ref.-T.,2009.
14. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.-Toshkent,2007.-90 b.
15. Soliyev A., Qarshibayeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va _maliy masalalari. – Toshkent, 1999. -181 b.
16. Soliyev A.,Axmedov E., Maxamadaliyev R va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T.2003. 304 6.
17. Soliyev A., Bo'riyeva M., Tojiev Z., Nazarov M., Muxamedov O., Atajonov M. Qishloq joylar demografiyasi-T., 2005, - 140 b.
18. Soliyev A.S., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.2009.-212 b
19. Soliyev A.S., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

- T., 2010.
20. To‘hliyev N., Xaqberdiyev K., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. –Toshkent, 2006, -279 b.
 21. Xodiyev B.Yu va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
 22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Andijon viloyati xalq deputatlari navbatdan tashqari sessiyasda so‘zlagan nutqidan. Xalq so‘zi gazetasi, 2013 yil 27 aprel. № 81 (5755)
 23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
 24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Andijon viloyati turarjoy massivlarining kommunal infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo‘yicha 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.- T. 2010.
 25. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi. (Amaliy qo‘llanma).-T.: ”Ilm-ziyo”, 2009.